

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI**

**JAHON IQTISODIY-IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI  
FANIDAN USLUBIIY QO'LLANMA  
(II-QISM)**

**Samarqand-2009**

Uslubiy qo'llanmada jahon ho'jaligining tarkibiy qismlari, ya'ni jahon qishloq ho'jaligi, jahon yoqilg'i-energetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, o'rmon, yengil, oziq-ovqat va baliq ovlash sanoati, jahon transporti, uning tarmoqlarining joylashishi va rivojlanishi yoritilgan.

**Tuzuvchilar:** dots. T.J.Jumaboev,  
dots. N.H.Mamatqulov  
ass. O.X.Quvondiqov.

**Taqrizchilar:** dots. M.Mamatqulov,  
dots. X.Q.Qosimov.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga ko'ra, "geograf-bakalavr" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislikni egallovchi talabalarga ta'limning 3-bosqichida "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani o'tiladi. Ushbu fanni o'rganish uchun 222 soat ajratilgan bo'lib, uning 52 soati ma'ruza, 78 soati amaliy mashg'ulotlar va 92 soati mustaqil ta'lim hisoblanadi. Fanni o'rganish jarayonida talabalar jahon siyosiy kartasining shakllanishi, jahon mamlakatlarining ma'muriy boshqaruv va iqtisodiy rivojlanishga ko'ra guruhlariga ajratilishi, jahon tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, jahon xo'jaligining tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillar, jahon transporti, jahon mamlakatlarining regional xususiyatlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu bilimlarni olishda talabalar jahon siyosiy xaritasini, jahon mamlakatlarining hozirgi kundagi taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi statistik ma'lumotlar, geografik atlaslar va ilmiy maqolalarni hamda o'quv adabiyotlari- darsliklar, o'quv qo'llanmalarini o'qish va tahlil qilish asosida erishadilar.

Shu narsani qayd etish lozimki, hozirga qadar "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" faniga oid o'zbek tilida birorta ham darslik yoki o'quv qo'llanmalari chop qilingan emas, shuni hisobga olib Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida a'zolari tomonidan ushbu fan bo'yicha uslubiy qo'llanmayaratish rejalashtirildi. Talabalar tomonidan ushbu fanni bosqichma-bosqich o'rganishni hisobga olib, Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga oid uslubiy qo'llanma uch qismdan iborat qilib tuzildi. Uning I- qismi chop qilindi (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan uslubiy qo'llanma, I-qism, Samarqand, 2008yil).

Uslubiy qo'llanmaning 2-qimida, Jahon ho'jaligining tarkibiy qismlari, ya'ni jahon qishloq ho'jaligi, jahon yoqilg'i-energetika, qora va rangli metallurgiya sanoati, jahon mashinasozligi, kimyo, o'rmon, yengil, oziq-ovqat va baliq ovlash sanoat tarmoqlari, jahon transport tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishi va ularning joylashish qonuniyatlarini ko'rsatib berilgan.

Uslubiy qo'llanmaning ikkinchi qismida talabalar jahon xo'jaligining tarkibiy qismlarini o'rganish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi, har bir tarmoqni o'rganishda qanday turdagi amaliy va mustaqil ishlarni bajarishlari kerakligi atroflicha yoritilgan. O'ylaymizki Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani bo'yicha uslubiy qo'llanmaning 2-qismining chop etilishi, talabalar tomonidan ushbu fanni yanada chuqurroq bilib olish imkoniyatini yaratadi.

## **II- Qism.** **JAHON XO'JALIGI.**

### **1- mavzu: Jahon qishloq xo'jaligi**

#### **Topshiriqlr:**

- 1. Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini aniqlash.**
- 2. Jahon qishliq xo'jaligining tarkibini aniqlash.**
- 3. Jahon dehqonchilik ekinlari va chorvachilik turlarining tarqalish aryallarini aniqlash.**

#### **Reja:**

- 1. Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni;**
- 2. Jahon qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari-chorvachilik va dehqonchilik;**
- 3. Jahon chorvachiligining tarkibi va ularning mintaqaviy xususiyatlari;**
- 4. Jahon dehqonchiligining tarkibi va ularning mintaqaviy xususiyatlari.**

**Darsning o'quv va tarbiyaviy maqsadi:** Jahon qishloq xo'jaligining ahamiyati, uning tarkibi va joylanishi to'g'risida tushuncha bering.

**Dars o'tish vositalari:** Geografik atlasdagi jahon er resurslari, jahon qishloq xo'jaligi, jahon chorvachiligi xaritalari.

**Dars o'tish usullari:** Jahon qishloq xo'jaligi mavzusini o'tish, ma'ruza, savol - javob, usullsridan foydalaniladi.

### **Darsning mazmuni:**

#### **Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni.**

Qishloq xo'jaligi ikkita asosiy tarmoqdan, ya'ni dehqonchilik (o'simlikshunoslik) va chorvachilikdan tashkil topgan. Bu tarmoqlarning qishloq xo'jaligida tutgan o'rni ushbu tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulot hajmi bilan aniqlanadi

#### **Jahon qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari-chorvachilik va dehqonchilik;**

Jahon qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari asosan bir-biriga teng. Biroq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishga nisbatan ustun. Shu sababli jahon qishloq xo'jaligining tartibini tahlil qilishni chorvachilik tarmoqlarini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiq.

#### **Chorvachilik.**

Chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik va parrandachilikning ulushi katta.

Chorvachilikning rivojlanishida uning ozuqa bazasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa sut yo'nalishidagi chorvachilikning rivojlanishi ozuqa yetishtirish bilan uzviy ravishda bog'liq. Shu sababli ham sayyoramizda mo'tadil iqlimning o'rmon-dasht zonalarida sut yo'nalishidagi qoramolchilik rivojlangan.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilik iqtisodiy rivojlangan AQSH ning ko'l bo'yi shtatlarida, Shimoliy Yevropa, Yangi

Zelandiya mamlakatlari hamda o'tkinchi iqtisodiyot (ya'ni markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar)da Boltiq bo'yi respublikalari, Belarus, Rossiyaning shimoli-g'arbiy, markaziy iqtisodiy rayonlarida yaxshi rivojlangan. Ushbu mamlakatlarning ayrimlari (Avstraliya, Yangi Zelandiya)da qoramollar yil bo'yi yaylovda boqilsa, Rossiyada qoramollar qishda turg'un holda boqiladi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik intensiv yo'nalishga ega, ya'ni ushbu mamlakatlarda yaylovzorlarning hosildorligini oshirish uchun ularni o'g'itlash, yaylovzorlarning meliorativ holatini yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Bundan tashqari qoramollar zotini yaxshilashga ham alohida e'tibor beriladi. Shu sababli sutli qoramollardan AQSH, Daniya, Niderlandiya va Shvetsiyada 5 ming kg sut sog'ib olinadi. Rossiyada bu ko'rsatkich 2,8 ming kg, Argentinada 2,6, Xitoyda 1,6, Mo'g'ulistonda 0,35 ming kgni tashkil qiladi.

Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik Afrika mamlakatlaridan tashqari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida rivojlangan. Afrikada uyqu (tse-tse) kasalligi chaqiruvchi chuvinning ko'pligi qoramolchilikning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoda qoramollar sonining ko'p bo'lgan mamlakatlariga Hindiston, Braziliya, Xitoy, AQSH, Argentina, Rossiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Frantsiya va Germaniya misol bo'ladi. Hindistonda qoramollar sonining ko'p bo'lishiga, uni hindlarning muqaddas deb hisoblaganligidadir.

Jahonda yetishtirilayotgan go'shtning 30%i qoramol go'shtiga to'g'ri keladi. Qoramol go'shti Avstraliya, Braziliya, Niderlandiya, Kanada, AQSH va Argentinada ko'p yetishtiriladi.

Yiliga dunyoda 500 mln tonna sut ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilayotgan sut aholi jon boshiga 100 kg ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Zelandiyada 2400 kg, Irlandiyada 1500 kg, Niderlandiyada 900 kg, Belarusda 700 kg, Daniyada 500 kg, Frantsiyada 490 kg, Germaniyada 450 kg ni tashkil qiladi.

Qo'ychilik, sayyoramizning quruq dasht, chala-cho'l va cho'l zonalarida yaxshi rivojlangan. Qo'ylar uchun yaylovzorlarning kattaligi muhim ahamiyatga ega. Yaylovzorlar maydoni Avstraliyada 130 mln.ga.ni, Xitoyda 120 mln.ga.ni tashkil qiladi. Qo'ylarni boqish uchun yaylovlar Yangi Zelandiya, Hindiston, Turkiya, Qozog'iston, Rossiya va Mo'g'uliston ham keng hisoblanadi. Qo'ylarni juni, go'shti, terisi uchun boqiladi. Qo'y go'shti Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina kabi mamlakatlarda ko'p yetishtiriladi.

Cho'chqachilikning rivojlanishi unga beriladigan ozuqadan tashqari, shaharlardagi umumiy ovqatlanish korxonalarining chiqindilari ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli cho'chqachilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda va aholisi zich joylashgan hududlarda rivojlangan. Cho'chqalar tuyoq sonining ko'p Xitoyda (dunyoda cho'chqalarning 2/3 qismi), AQSHda, Braziliya, Meksika, Germaniya, Polsha, Rossiya, Ukraina va Yaponiyada tarqalgan. Cho'chqa go'shtini yetishtirishda va eksport qiluvchi davlatlarga Niderlandiya, Polsha, AQSH misol bo'ladi.

Parrandachilik, chorvachilikning tez yetiladigan sohasi. Dunyoda yetishtirilayotgan go'shtning 20% parranda go'shtiga to'g'ri keladi.

Parrandachilikning parhez go'shti yetishtiruvchi sohasi broyler-AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi davlatlarda rivojlangan.

Parrandalar soni bo'yicha Xitoy (3,1mlrd.dona), AQSH (1,6 mlrd.dona) yetakchilik qiladi. Bundan tashqari parrandalar soni Braziliya, Hindiston, Rossiya va Meksikada ham ko'p. Xitoy, AQSH, Yaponiya va Rossiyada ko'plab parranda tuxumi yetishtiriladi. AQSH, Frantsiya, Belgiya kabi davlatlar parranda go'shtini eksport qiluvchi davlatlar hisoblanadi.

### **Dehqonchilik.**

Dehqonchilik (o'simlikshunoslik) bir necha tarmoqlardan ya'ni don ekinlari, texnika ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik, kartoshkachilik, ozuqa ekinlari yetishtirish kabi tarmoqlardan iborat.

Don ekinlari, turli xil maqsadlarda ishlatiladi. Ulardan non, non mahsulotlari, chorva mollari uchun ozuqa tayyorlanadi. Dunyoda yiliga 2000 mln. tonna don yetishtiriladi. Shuning 28% ni makkajo'xori doni tashkil qiladi. Ekiladigan maydoni va eksport hajmi bo'yicha bug'doy yetakchi o'rinni egallaydi.

Boshqoli don ekinlari orasida bug'doy yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Bug'doy yetishtirish uchun qora tuproqli dasht va o'rmon-dasht zonalarida juda qulay xisoblanadi. Ushbu zonalarda ko'proq kuzgi bug'doy ekiladi. Kanada, Rossiyaning shimoliy rayonlari, Qozog'istonning shimoli va Mo'g'ulistonning shimolida bahori bug'doy ekiladi. Yiliga jahonda 600 mln. tonna bug'doy yetishtirilib, uning 90-100 mln.tonnasi eksport qilinadi. Dunyoda bug'doy yetishtirishda AQSH, Hindiston, Frantsiya, Rossiya, Kanada, Avstraliya va Argentina davlatlari yetakchilik qiladi.

AQSH, Kanada, Frantsiya, Avstraliya va Argentina kabi mamlakatlar bug'doyni eksport qiladi. Xitoy, Yaponiya, Braziliya, Misr Arab Respublikasi bug'doyni import qiluvchi

davlatlar hisoblanadi. Rossiya ayrim yillari bug'doyni eksport qilsa, ayrim yillari bug'doyni import qiladi.

Sholi, issiqlik va namlikni yaxshi ko'radigan boshqali don ekinidir. Sholi yetishtirish uchun tropik va subtropik zonalarida tabiati qulay. Osiyoning sharqiy, Janubi-sharqiy, Janubiy mintaqalaridagi Xitoy, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Tailand, Myanma, Vetnam, Laos, Hindiston, Pokiston, Indoneziya va Filippin kabi davlatlar aholisining asosiy oziqasida sholi hisoblanadi. Shu sababli sholi ushbu mintaqalarda ko'p ekiladi. Bundan tashqari sholi Shimoliy va Lotin Amerikasi mamlakatlari (AQSH, Braziliya va boshqalar), Afrika ( Misr Arab Respublikasi va boshqalar) O'rta Osiyo respublikalari va Ozarbayjonda ekiladi. Dunyoda yetishtiriladigan sholining 1/3 qismi Xitoyga, 1/5 qismi Hindistonga to'g'ri keladi.

Yiliga dunyoda 500 mln. t. Sholi yetishtiriladi va uning 5%i eksport qilinadi. Sholi eksport qilishda Tailand, Vetnam, AQSH, Myanma, Pokiston davlatlari yetakchilik qiladi. Sholini import qilish ko'proq Indoneziya, Bangladesh, Eron, KXDR, Saudiya Arabistoniga to'g'ri keladi.

Makkajo'xori, aholi uchun non va non mahsulotlari, chorva mollari uchun oziq ta'yorlashda ishlatiladi. Dunyoda yiliga 450-500 mln.t. makkajo'xori doni yetishtiriladi. Makkajo'xori ko'proq Shimoliy va Lotin Amerikasi mamlakatlari (AQSH, Meksika, Braziliya, Argentina) hamda Xitoyda yetishtiriladi. Dunyoda yetishtirilayotgan makkajo'xori donining yarmidan ko'prog'i, eksportning 70%i AQSHga to'g'ri keladi. Makkajo'xori donini eksport qilishda Argetnina ikkinchi o'rinni egallaydi.

Makkajo'xori donini o'z ehtiyoji va chorva mollari uchun oziq ta'yorlash uchun yetishtiriladigan davlatlarga Frantsiya,

Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviya, Moldova, Ukraina, Rossiya, Afrikadagi JAR, Keniya, Angola, Mozambik, Monako davlatlari misol bo'ladi.

Don ekinlari orasida jahon xo'jaligida javdari, arpa, suli, tariq va jo'xorining ahamiyati katta.

Javdari-mo'tadil mintaqaning o'rmon zonasida yetishtiriladi. Dunyoda yetishtiriladigan javdarining 70% i Kanada va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yetishtiriladi. Jahonda yetishtirilayotgan javdari yalpi hosilning 1/3 qismi Rossiyaga to'g'ri keladi.

Arpa va suli Shimoliy Amerikaning o'rmon zonasi (Kanada, AQSH), Yevropa (Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Polsha, Estoniya, Latviya, Litva, Rossiya) davlatlarida yetishtiriladi.

Tariq va jo'xori, AQSH, Hindiston, Xitoy va Afrikada yetishtiriladi. Ushbu davlatlarga dunyoda yetishtiriladigan tariq va jo'xorining 1/4 qismi to'g'ri keladi.

Texnika ekinlari, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun kerakli xomashyo olish uchun yetishtiriladi.

Shakarqamish, asosan Lotin Amerikasi mamlakatlari (Braziliya, Kuba, Meksika va boshqalar), Sharqiy va Janubiy Osiyo (Hindiston, Xitoy, Filippin, Tailand, Vetnam va boshqalar) hamda Avstraliyada yetishtiriladi.

Qandlavlagi, shakarqamishga nisbatan uncha issiq talab qilmaydi. Shu sababli qandlavlagi ko'proq mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan Ukraina, Frantsiya, Germaniya, Rossiya, Polsha va AQSH kabi davlatlarda ekiladi.

Dunyoda ishlatilayotgan shakarining asosiy qismi shakarqamishdan olinadi. Shakarqamish asosida ishlab chiqarish Hindiston, Kuba, Braziliya kabi davlatlarda rivojlangan.

Shakar eksport qilishda Braziliya, Hindiston, Tailand, Avstraliya, qandlavlagi asosida olinadigan shakarni eksport qilishda Frantsiya va Ukraina kabi davlatlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Tola beruvchi ekinlarga paxta, tolali zig'ir, jut va sizal kiradi. Dunyoda paxta asosan Osiyodagi-Xitoy, Hindiston, Pokiston, Vetnam, Suriya, Turkiya, O'zbekiston, Shimoliy va Lotin Amerikasidagi-AQSH, Meksika, Braziliya, Peru, Afrikadagi-Misr Arab Respublikasi, Sudan kabi mamlakatlarda yetishtiriladi.

Paxta tolasini eksport qilishda AQSH, O'zbekiston, Meksika, Gvatemala, Pokiston, Misr Arab Respublikasi, Sudan kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Tolali zig'ir- mo'tadil iqlimli keng bargli va aralash o'rmonlar zonalarida yetishtiriladi. Tolali zig'ir ko'proq Belarus va Rossiyada yetishtiriladi.

Jut (kanop)-ko'proq dag'al tola olish uchun ekiladi. U ko'proq Osiyo mamlakatlari - Xitoy, Hindiston, Bangladesh, qisman O'zbekistonda yetishtiriladi.

Sizal O'simligining bargidan tola olinadi. U ko'proq Braziliya, Tanzaniya, Keniya kabi davlatlarda ekiladi.

Quvvat beruvchi o'simliklarga-choy, kofe, kakao o'simliklari kiradi. Choy yetishtirish Hindiston, Xitoy, Shri-Lanka, Indoneziya, Turkiya, Gruzijada, kofe-Braziliya, Kolumbiya, Meksika, kakao-Gana, Niger, Kamerun va Braziliyada yetishtiriladi.

Tamaki-Xitoy, Hindiston, AQSH, Braziliya, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikistonda yetishtiriladi.

Soya-eng muhim moy beruvchi o'simlik. Soya yetishtirish bo'yicha AQSH (dunyoda yetishtiriladigan va eksport

qilinadigan soyaning yarmi AQSHga to'g'ri keladi), Xitoy, Braziliya, Argentina kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Kungaboqar-asosan Rossiya va Ukrainada, zaytun daraxti-O'rta Yer dengizi mamlakatlari, palma-Malayziya, Indoneziyada, yer yong'oq-Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarida, raps-Hindiston, Argentinada, kunjut-Osiyo davlatlarida ekiladi.

Geveya daraxti-asosan tabiiy kauchuk olish uchun ekiladi. U ko'proq Malayziya, Indoneziya, Tailand va Meksikada yetishtiriladi.

Jahon dehqonchiligining muhim tarmoqlaridan-sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik xisoblanadi. Sitrus mevalar va sabzavot ekinlarini yetishtirishda AQSHning Kaliforniya, Florida shtatlari, O'rta Yer dengizi mamlakatlari alohida o'rinni egallaydi.

Uzumning shampan navini yetishtirishda Frantsiyaning Shampan viloyati ajralib turadi. Uzumning toyfi, kishmish, charos, husayni kabi shirali navlari ko'proq O'zbekistonda yetishtiriladi.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasani aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so'rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o'tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

## **Darsni mustahkamlash:**

### **Mustaqil ish topshiriqlar:**

I. topshiriq. Jahon chorvachiligi, ularning turlari, tarqalishi mavzusida referat yozish.

II. topshiriq. Jahon dehqonchilik ekinlari, ularning turlari, tarqalishi mavzusi bo'yicha referat yozish.

### **Amaliy mashg'ulotlar:**

1. Jahonda qoramolchilik yaxshi rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

2. Jahonda qo'ychilik yaxshi rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

3. Jahonda chuchqachilik yaxshi rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

4. Don ekinlari tarqalish areallarini yozuvsiz xaritaga tushiring.

5. Texnika ekinlarining tarqalishi areallarini yozuvsiz xaritaga tushiring.

### **Testlar:**

**1. Jahon qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari nechta?**

a) 1ta; b) 2ta; v) 3ta; g) 4ta; e) 5ta;

**2. Qo'ychilik qaysi tabiiy zonalarda yaxshi rivojlangan?**

a) quruq dasht; b) chala-cho'l; v) cho'l; g) tropik cho'l; e) a, b, v.

**3. Boshqoli don ekinlari yetishtirishda qaysi davlatlar yetakchilik qiladi?**

a) Xitoy, AQSh, Hindiston, Fransiya, Rossiya, Kanada, Avstraliya;

b) Xitoy, Braziliya, Qozog'iston, Rossiya, Yangi Zelandiya, Misr Arab Respublikasi, Kanada.

v) AQSh, Kanada, Avstraliya, Qozog'iston, Argentina, Meksika, Peru.

g) Kanada, Hindiston, Kuba, Chili, JAR, Qozog'iston, Ukraina.

e) Hindiston, Kuba, Meksika, Xitoy, Yaponiya, Argentina, Yaponiya.

**4. Jahonda paxta eksporti bo'yicha yetakchi mamlakatlarni aniqlang?**

a) AQSh, O'zbekiston, Meksika, Gvatemala, Pokiston, Misr Arab Respublikasi, Sudan.

b) AQSh, Xitoy, Pokiston, Bangladesh, Afg'oniston, Turkiya, Kipr.

v) AQSh, Xitoy, Afg'oniston, Peru, Chili, Argentina, Hindiston.

g) AQSh, O'zbekiston, Meksika, Chili, Peru, Kuba, Malayziya.

e) AQSh, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Misr Arab Respublikasi.

**5. Quyidagi ekinlardan qaysi birlari moy beruvchi o'simliklar guruhini tashkil qiladi?**

a) paxta, tolali zig'ir; b) jut, sizal; v) paxta, jut; g) soya, kungaboqar; e) tolali zig'ir, soya.

### **Sinov savollari:**

1. Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga baho bering?

2. Jahon chorvachiligining asosiy tarmoqlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. Sut yo'nalishidagi qoramolchilik qaysi mamlakatlarda kuchli rivojlangan?

4. Boshqoli don ekinlar yetishtirish bo'yicha (bug'doy) qaysi davlatlar yetakchilik qiladi?

5. Sholi dunyoning qaysi davlatlarida ko'p yetishtiriladi?

6. Shakarqamish dunyoning qaysi davlatlarida ko'p yetishtiriladi?

7. Tola beruvchi ekinlardan tola dunyoning qaysi mamlakatlarida ko'p yetishtiriladi?

8.Moy beruvchi o`simliklardan soya qaysi mamlakatlarda eng ko`p yetishtiriladi?

**Uy vazifalari:**

- 1.Yozuvsiz kartaga sut yo`nalishidagi qoramolchilikning tarqalish areallarina tushiring.
- 2.Yozuvsiz kartaga qo`ychilikning tarqalish areallarining tushiring.
3. Yozuvsiz kartaga boshqoli don ekinlari (bug`doy) arpa, makkajo`xori tarqalish areallarini tushiring.
4. Yozuvsiz kartaga texnika ekinlarining tarqalish areallarini tushiring.

**Jahon sanoatining umumiy xususiyatlari**

**Asosiy maqsad:** Talabalarga sanoatning jahon xo`jaligida tutgan o`rni, jahon sanoatining asosiy tarmoqlari, ularning tarkibi va joylashish qonuniyatlari haqida tushuncha berish. Ushbu mavzuni yoritish quyidagi rejalar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Sanoat rivojlanishining umumiy xususiyatlari;
- Jahon yoqilg`i-energyetika sanoati;
- Jahon metallurgiya sanoati;
- Jahon mashinasozlik sanoati;
- Jahon kimyo sanoati;
- Jahon o`rmon sanoati;
- Jahon yengil sanoati;
- Jahon oziq-ovqat sanoati;

**Sanoat rivojlanishining umumiy xususiyatlari.**

Jahon moddiy ishlab chiqarishining yetakchi tarmog`i sanoat bo`lib, unda 350 mln.dan ko`proq aholi band (Abirqulov N. 2004y). Bu ko`rsatkich jahon qishloq xo`jaligida band aholiga nisbatan 3 marta kam.

Sanoat asosan ishlab beruvchi va undiruvchi (tog`-kon) tarmoqlaridan iborat. Sanoat tarmoqlari paydo bo`lish davriga ko`ra 3 guruhga bo`linadi:

Eski tarmoqlar (ko`mir, metallurgiya, to`qimachilik, oziq-ovqat, kemasozlik, kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari), yangi tarmoqlar (avtomobilsozlik, samolyotsozlik, neft, o`rmon, kimyo, alyuminiy ishlab chiqarish, plastmassa, sintetik kauchuk, sun`iy tolalar ishlab chiqarish va boshqalar); eng yangi tarmoqlar (robotsozlik, aerokosmik, organik sintez, mikrobiologiya va boshqalar).

Keyingi o'n yilliklarda rivojlanish sur'atlari F.T.I.ning yetakchi tarmoqlari-mashinasozlik va kimyo sanoatlarida rivojlanish sur'atlari boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori, tog'-kon va asosiy (bazaviy) tarmoqlarda esa sekin bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlar sanoati takibida ishlab beruvchi sanoat-83,4%, undiruvchi sanoat-8,1% salmoqqa ega. Sanoat tarkibining eng asosiy xususiyati unda odam-texnika tarqqiyotini belgilab beruvchi fan talab tarmoqlaridan ko'pchiligini qamrab oluvchi mashinasozlikning ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sanoatida yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Germaniya va Shvetsariyada jami sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik sanoatining ulushi 38% ga teng. Bu ko'rsatkich Vengriyada 33% ni, Buyuk Britaniyada va Italiyada 32%, Niderlandiyada 28%, Norvegiyada 26%, Kanadada 25%, Avstriya va Daniyada 24%, Finlandiyada 24%, Avtriyada 23%, Italiyada 22% ga teng. Ayniqsa elektro-texnika va elektronika, robot va aloqa, axborot texnologiyalari vositalarini ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarining tez o'sayotganligi xarakterlidir. Ikkinchi o'rinni kimyo sanoati egallaydi. Uning sanoatdagi salmog'i rivojlangan mamlakatlarda 20-25%ga teng. Ayniqsa kimyo sanoati tarkibida polimer maxsulotlarini ishlab chiqarishning salmog'i oshib bormoqda. Tog'-kon va asosiy kimyo sanoatining salmog'i pasaymoqda.

## **2-mavzu. Jahon yoqilg'i-energetika sanoati**

### **Topshiriq:**

- 1.Jahon sanoati rivojlanishi xususiyatlarini aniqlash.**
- 2.Jahon yoqilg'i sanoatining tarkibini aniqlash**
- 3.Jahon elektr-energitika sanoati va uning joylashish xususiyatlarini aniqlash.**

### **Reja:**

- 1. Jahon sanoati rivojlanishining umumiy xususiyatlari.**
- 2. Jahon yoqilg'I sanoatining rivojlanish xususiyatlari**
- 3. Jahon neft sanoati.**
- 4. Jahon neft sanoati**
- 5. Jahon ko'mir sanoati**
- 6. Jahon elektr-energitika sanoati**

**Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi:** Jahon yoqilg'i-energitika sanoatining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarkibi va joylashishito'g'risida tushuncha berish.

**Darsning o'tish vositalari:** Jahonning siyosiy kartasi, geografiya atlas, jadvallar, sxemalar.

**Darsning o'tish usullari:** Maruza matnlari bilan ishlash, mavzuning qisqa mazmuni aqqs etgan materiallarni talabalarga tarqatish, dars jarayonida talabalar o'rtasida o'zoro baxs tomonlaridan samarali foydalanish, mustaqil fikrlarni tinglash, amaliy mashg'ulotlarga keng joy ajratish va hokozo.

### **Darsning mazmuni:**

#### **Jahon yoqilg'i sanoatining rivojlanish xususiyatlari**

Yoqilg'i-energetika sanoati jahon xo'jaligining asosi bo'lib, u uch bo'g'indan: yoqilg'i-energetika resurslarini qazib olish, ularni energiya ishlab chiqarish joylariga tashish, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishdan iborat.

Jahon yoqilg'i-energetika sanoatining rivoji 3 asosiy bosqichdan tashkil topgan. Bular: ko'mir qazib olish, neft-gaz bosqichi va hozirgi zamon bosqichi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida energetika sanoati va xalqaro savdoda ko'mir qazib chiqarish asosiy o'rinni egalagan. 1948 yilda energiya ishlab chiqarishda ko'mirning hisssasi 60%ni tashkil qilgan. XX asrning 50-60 yillarida energiya ishlab chiqarishda neftning hisssasi 51% ni tashkil etdi, ko'mirning hisssasi 23% ga kamaydi, gazniki 21,5% ni, gidroenergiya-3%, yadro energiyasining hisssasi 1,5% ga ortdi.

Hozirgi kunda jahon energetika sanoati neft, gaz, ko'mir sanoatlari va elektro-energiya sanoati tarmoqlaridan tashkil topgan.

Neft sanoati. Hozirgi kunda neft va neft sanoati mahsulotlari energiya ishlab chiqarishda keng ishlatilibgina qolmasdan, kimyo sanoatida xomashyo sifatida keng ko'lamda ishlatilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda neft qazib olish yiliga 3,3-3,4 mlrd.t.ni tashkil qiladi. Qazib olinayotgan neftning 43%i neft eksport qiluvchi davlatlar (Eron, Quvayt, Saudiya Arabistoni, BAA, Katar, Jazoir, Liviya, Niger, Gabon, Indoneziya, Venesuela) hissasiga to'g'ri keladi. Neft qazib olishda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridan Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog'istonning hisssasi katta.

Bundan tashqari neft qazib olish Shimoliy Amerikada (AQSH, Kanada, Meksikada), Buyuk Britaniya va Norvegiya shimoliy dengiz havzasidan, Xitoyda, Janubiy-Sharqiy Osiyoda (Malayziya) va Baxreynda qazib olinadi.

Hozirgi kunda dunyoda qazib olinayotgan neftning asosiy qismi 10 davlat hissasiga to'g'ri keladi. Jumladan yiliga Saudiya Arabistonida 410 mln.t, Eronda 185 mln.t., Norvegiyada 155 mln.t., Xitoyda 155 mln.t., Venesuelada 150 mln.t., Meksikada 145 mln.t., BAA va Buyuk Britaniya davlatlarida 100 mln.t.ga yaqin neft qazib olinmoqda.

Qazib olingan neftning yarmi eksport qilinadi. Eksport qilinayotgan neftning 65% neftni eksport qiluvchi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Neft eksport qilishda Rossiya, Meksika, Buyuk Britaniya, Iroqning ham hisssasi katta.

Neft ko'proq AQSH, Yaponiya, Xitoy, Yevropa davlatlari (Frantsiya, Germaniya, Niderlandiya)ga eksport qilinadi.

Neftni qayta ishlovchi sanoati asosan neft istemol qiluvchi davlatlarda joylashgan. Jumladan neftni qayta ishlovchi zavodlarning 21% AQSHga, 20% G'arbiy Yevropa davlatlariga, 17% Rossiyaga, 6% Yaponiyaga to'g'ri keladi.

Gaz sanoati. Tabiiy gaz neft kabi yoqilg'i va kimyo sanoatida xom-ashyo sifatida ishlatiladi. Gaz sanoati XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab rivojlandi. Jahon yoqilg'i sanoatida neft va ko'mirdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi (20%). Hozirgi kunda gaz qazib olish 2,2 trln.m.kub.ni tashkil qiladi. Gaz qazib olishda Rossiya (570 mlrd.m.kub.) AQSH (540 mlrd.m.kub.), Kanada (155 mlrd.m.kub.) davlatlari yetakchilik qiladi.

Bundan tashqari gaz qazib olishda Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Jazoir, O'zbekiston, Turkmaniston, Saudiya Arabistoni, Eron, Avtsraliya kabi davlatlarning ham

hissasi katta. Ushbu davlatlarning xar birida yiliga 80-90 mlrd.m.kub. gaz qazib olinadi. Qazib olingan gazning 15% eksport qilinadi. Gaz eksport qiluvchi davlatlarga Rossiya (dunyodagi gaz eksportining 30%), Niderlandiya, Kanada, Norvegiya, Jazoir kabi davlatlar misol bo'ladi.

Gaz importi mamlakatlariga AQSH, Germaniya, Frantsiya va Italiya misol bo'ladi.

Gaz, gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Jumladan Kanadadan gaz Meksika va AQSHga, Rossiya va Turmanistondan-MDH va Yevropa davlatlariga, Norvegiyadan Niderlandiya va Yevropa mamlakatlariga yuboriladi. Suyultirilgan gaz Indoneziyadan Yaponiyaga, Jazoir dan G'arbiy Yevropa va AQSHga eksport qilinadi.

Ko'mir sanoati. Jahonda energetik vaziyatning keskinlashganligiga bog'liq holda keyingi yillarda ko'mir sanoati tez rivojlanmoqda va u jahon energetika sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyoda ko'mir zahiralari 1,2 trln.t.ga teng bo'lib, uning 60%i iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Ko'mir zaxiralari bo'yicha AQSH (400 mlrd.t.), MDH davlatlari (280 mlrd.t.), Xitoy (105), Germaniya (90), Buyuk Britaniya (90), Kanada (15mlrd.t.) kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Dunyoda yeng katta ko'mir koni Appalachi ko'mir havzasi, Germaniyadagi Rur, Polshadagi Yuqori Sileziya, Ukrainadagi Donbass, Rossiyadagi Kuzbass, Pechora, Qozog'istondagi Qarag'anda, Xitoydagi Fushn koni havzalari misol bo'ladi.

Qazib olingan ko'mirning 1/10 qismi (asosan kokslanuvchi ko'mir) eksport qilinadi. Ko'mirni eng ko'p eksport qiluvchi davlatlarga Avtraliya, AQSH, JAR, Polsha, Kanada va Rossiya

hisoblanadi. Ko'mirni Yaponiya, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya davlatlari import qiladi. Avstraliya ko'mirni ko'proq Yaponiya va Janubiy Koreyaga, AQSH, va JAR ko'mirni Yevropa davlatlari sotib oladilar.

Elektroenergetika sanoati. Jahonda yiliga ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi 13,5 trl. kvt soatni tashkil qiladi. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi AQSH (3600 mlrd.kvt.soat), Yaponiya (930), Xitoy (900), Rossiya (545), Kanada, Germaniya, Frantsiya davlatlarining xar biriga (500 mlrd.kvt.soat) elektr energiyasi to'g'ri keladi. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 65% iqtisodiy rivojlangan, 28%-rivojlanayotgan mamlakatlar, 13%-o'tkinchi iqtisoditli davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 60% IESlar, 20% GESlar, 17% AESlar hissasiga to'g'ri keladi.

GESlar asosida elektr energiya olish- Norvegiya, Braziliya, Kanada va Yangi Zelandiyada, IESlar asosida elektr quvvati olish-Polsha, Niderlandiya, JAR, atom energiyasi asosida elektr quvvati olish –Frantsiya, Shvetsiya, Belgiya, Shveytsariya, Finlandiya, Koreya Respublikasi kabi davlatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Jahonda Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyodagi ko'pchilik davlatlarda GESlarni qurish imkoniyati katta. Biroq GESlarni qurish katta mablag'ni talab qiladi. Shu sababli energiya olishda IESlarning roli katta. AESlarni qurish uning yoqilg'i manbaiga bog'liq emas. Shu sababli Yevropadagi daryolar energiyasiga kambag'al mamlakatlarda AESlar qurish yaxshi rivojlangan. Bularga Frantsiya, Shvetsiya, Finlandiya, Belgiya, Shveytsariya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi davlatlar misol bo'ladi.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so`rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o`tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

#### **Darsni mustahkamlash:**

#### **Mustaqil ish topshiriqlar:**

- I- topshiriq. Jahon yoqilg`i sanoati, uning tarkibi va joylashishi mavzusida referat yozish;
- II- topshiriq. Jahon elektr-energitika sanoati tarkibi va joylashishi mavzusida referat yozish.

#### **Amaliy mashg`ulotlar:**

1. Jahon neft sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.
2. Jahon gaz sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.
3. Jahon ko`mir sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.
4. Jahon elektr-energitika sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

### **Testlar:**

#### **1.Energitika sanoati necha bug`indan iborat?**

a)1ta b) 2ta c) 3ta d) 4ta e) 5ta

#### **2. Jahon eqilg`i – energetika sanoati nechta bosqichdan iborat?**

1 ta; 2 ta; 3 ta; 4 ta; 5 ta;

#### **3. Qaysi javobda neft qazib oluvchi davlatlar to`g`ri ko`rsatilgan?**

- a) Eron, Quvayt, Saudiya Arabistini, Misr Arab respublikasi, Turkmaniston, Jazoir, Liviya, Katar, Niger, Gabon, Indoneziya.
- d) Eron, Quvayt, Saudiya Arabistini, BAA, Katar, Jazoir, Liviya, Niger, Gabon, Indoneziya, Venesuela.
- v) Eron, Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Braziliya, Venesuela, Indoneziya, Meksika, Chad, Malayziya, Norvegiya.
- g) Rossiya, O`zbekiston, Xitoy, Ukraina, Shivetsiya, Germaniya.
- e) Eron, Afg`oniston, Iroq, Arabiston, Niger.

#### **4. Gaz qazib olishda qaysi davlatlar etakchilik qiladi?**

- a) Saudiya Arabistoni, Norvegiya, Rossiya.
- b) Jazoir, Livan, Turkmaniston.
- v) Rossiya, O`zbekiston, Venesuela.
- e) Rossiya, AQSH, Konada.

#### **5. GESlar asosida electero-energiya olish qaysi davlatlarda yaxshi yo`lga qo`yilgan?**

- a) Rossiya, Brazilya, Islandiya, Norvegiya.
- b) Konga, AQSH, Kanada, Qirg`iston.
- v) Norvegiya, Brazilya, Kubada, Yangi Zilandiya.
- g) Xitoy, Xindiston, Avstraliya, Shivetsiya.
- e) Tojikiston, O`zbekiston, Rossiya, Kanada.

### **Sinov savollari:**

1. Jahon yoqilg`I–energetika sanoatining asosiy bosqichlariga baho bering?
2. Hozirgi kunda dinyoda qazib olinayotgan neftning asosiy qismi qaysi davlatga to`g`ri keladi?
3. Qaysi davlatlar gaz eksport qilishda etakchi o`rnini egallaydi?
4. Ko`mur zaxiralari bo`yicha etakchi orinni egallaydi?
5. Dunyodagi eng katta ko`mir koni havzalari nomini ayting?
6. Jahonda GESlar asosida qaysi davlatlar etakchilik qiladi?
7. Jahonda IESlar asosida qaysi davlatlar etakchi o`rnini egallaydi?
8. Jahonda AESlar asosida elektir energiyasi olishda qaysi davlatlar etakchi o`rnini egallaydi?

### **Uy vazifalari:**

1. Jahondagi asosiy ko`mor, neft, gaz konlarini yozuvsiz kartaga tushiring.
2. Jahondagi GES, IES va AESlarni yozuvsiz kartaga tushiring.

### **3- mavzu: Jahon metallurgiya sanoati**

#### **Topshiriq:**

1. Jahon metallurgiya sanoati tarkibini bilish.
2. Jahon qora metallurgiya sanoati va uning joylanish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Jahon rangli metallurgiya sanoatining tarkibi va ularning joylashish qonuniyatlarini aniqlash.

#### **Reja:**

1. Jahon metallurgiya sanoati va uning xalq xo`jaligidagi ahamiyati.
2. Jahon qora metallurgiya sanoati, xom ashyo ba`zalari, joylanish.
3. Jahon rangli metallurgiya sanoatining tarkibi, joylashish qonuniyatlari

**Darsning o`quv tarbiyaviy maqsadi:** Talabalarga jahon metallurgiya sanoatining tarkibi va ularning joylanish qonuniyatlari to`g`risida tushuncha berish, metallurgiya sanoatining jahon xalq xo`jaligida tutgan o`rniga baho berish.

**Dars o`tish vositalari:** Jahonning siyosiy kartasi, jahon metallurgiya sanoati kartasi, geografik atlas, jadval, sloyda, fotasurat, fotalbomlar va h.k.z.

**Dars o`tish usullari:** Ma`ruza materiallari bilan tanishtirish; ma`ruzaning qisqa va lo`nda mazmunini aks etgan materiallarni talabalarga tarqatish, dars jarayonida talabalar o`rtasida o`zaro munozaralardan samarali foydalanish va ularning mustaqil fikirlarini tinglash, amaliy misollarga keng o`rin berish va h.k.z

**Darsning mazmuni:**  
**Jahon metallurgiya sanoati tarkibini bilish.**

Qora metallurgiya. Qora metallurgiya-sanoatning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mashinasozlik va qurilishni rivojlantirish asosi, xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarini texnik jihozlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Uning tarkibiga rudali va norudali xomashyoni qazib olish, boyitish, cho'yan, po'lat, prokat, ferroqotishmalar kabi ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi.

Qora metallurgiya sanoati korxonalari tarkibida metal eritish bosqichlarning mavjudligiga ko'ra ular metallurgiya kombinatlari (cho'yan, po'lat eritish va prokat ishlab chiqarish tsikllarining mavjudligi)ga, qayta ishlovchi korxonalar (cho'yan eritish sexidan tashqari)ga va kichik metallurgiya sanoati korxonalariga bo'linadi.

Bundan tashqari metall parchalari (siniqlari) asosida elektr pechlarida metall eritish korxonalariga bo'linadi.

Metall eritish uchun asosan temir rudasi, marganets va xrom rudalari kerak bo'ladi.

Dunyoda yiliga 1 mlrd.t. temir rudasi qazib olinadi, shuning 23% Xitoyga, 17% Braziliya va 13% Avstraliyaga to'g'ri keladi. Bundan tashqari temir rudasi Rossiyadan Ukraina, AQSH, Italiya, Hindiston, Kanada, Venesuela, Frantsiya va Qozog'istondan qazib olinadi.

Temir rudasini eksport qiluvchi mamlakatlarga Braziliya va Avstraliya misol bo'ladi va ularga jahondagi eksport qilinadigan temir rudasining 60% to'g'ri keladi. Ko'pchilik mamlakatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy o'zlaridan temir rudasini qazib olish bilan birga, chetdan temir rudasini sotib oladi. Dunyoda eng ko'p temir rudasini import

qiluvchi davlatlarga Yaponiya, Germaniya, Koreya Respublikalari misol bo'ladi.

Qora metallurgiya kombinatlarida 1 t. cho'yan olish uchun 1,5-2 t. temir rudasi, 1-1,2 t. kokslangan ko'mir, jami 4-5 t. xom-ashyo va yoqilg'i ishlatiladi. Shu sababli qora metallurgiya kombinatlarini joylashtirish uchun eng qulay joy temir va marganets rudalari va kokslanuvchi ko'mir bor joylar hisoblanadi. Shu boisdan ham Hindiston, Xitoy, Qozog'iston, Avstraliya va Ukrainaning Donbass Dnepr bo'yi rayonlaridagi qora metallurgiya kombinatlari xom-ashyo rayonlariga joylashgan.

Ko'pchilik joylarda temir rudasi tarkibida rudaning miqdori 50% dan kam.

Shu sababli Frantsiya, AQSH, Italiya, Shvetsiya, Braziliyadagi ayrim qora metallurgiya kombinatlari temir rudasiga yaqin yoki toshko'mir konlariga yaqin joylarga yaqin joylashtirilgan. Jumladan, Germaniyaning qora metallurgiya kombinati Rur toshko'mir havzasiga, AQSHda Pensilvaniya, Ukrainadan Donbass, Rossiyada Kuzbass ko'mir konlariga yaqin joylashtirilgan.

Hozirgi kunda, ko'pchilik mamlakatlarda qora metallurgiya kombinatlari temir siniqlari asosida ishlaydi. Shu sababli bunday kombinatlarda cho'yan eritish bosqichi yo'q. Temir siniqlari asosida po'lat eritadigan kombinatlarga AQSHning Janubiy va G'arbida joylashgan metallurgiya kombinatlari, Rossiyadagi ayrim kombinatlar misol bo'ladi.

Ko'pchilik temir rudasini chetdan sotib oluvchi davlatlarda qora metallurgiya kombinatlari dengiz bo'yi hududlarida joylashgan. Bunday qora metallurgiya kombinatlariga Yaponiyadagi qora metallurgiya kombinatlari misol bo'ladi. Chunki Yaponiya temir rudasini Avstraliya, Hindiston va

Braziliyadan olib kelsa, toshko'mirni Avstraliya va Xitoydan olib keladi. Shuningdek Italiya, Frantsiya, AQSH, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiyadagi yirik metallurgiya kombinatlari ham port shaharlarida joylashgan. Bunga, Italiyaning Neapol, Genuya, Taronta, Frantsiyaning Marsel, Dunkerk, AQSHning Baltimor, Filadelfiya, Xitoyning Uxan shaharlarida joylashgan.

Har yili 700-750 mlrd.t. po'lat eritiladi. Po'lat eritishda Xitoy, Yaponiya, AQSH, Rossiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Braziliya, Angliya, Frantsiya, Italiya kabi davlatlar yetakchi hisoblanadi.

Keyingi yillarda po'lat eritish Koreya Respublikasi, Braziliya, Hindiston, Meksika, Argentina kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning hissasi borgan sari ortib bormoqda.

MDH mamlakatlarida po'lat eritish Rossiyadan tashqari Ukraina, Qozog'iston, Gruziya va O'zbekistonda amalga oshiriladi.

Dunyoda eksport qilinadigan po'latning 15% Rossiya hissasiga to'g'ri keladi.

#### Rangli metallurgiya sanoati.

Rangli metallurgiya sanoati-rangli, nodir va kam uchraydigan metall rudalarini qazib olish, boyitish va eritishni o'z ichiga oladi.

Jahon rangli metallurgiya sanoatida aluminiy eritish 45% ni, mis eritish 25% ni, rux eritish 16%, qo'rg'oshin eritish 17% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari nikel, qalay, magniy, kobalt, volfram va molibden eritish ham jahonda ancha keng rivojlangan.

Rangli metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirish, ularning ayrim xususiyatlarini hisobga olib joylashtirishni taqozo qiladi. Bular quyidagilar:

-Ko'pchilik rangli metallar ruda tarkibida juda kam uchraydi. Shu sababli ularni ruda qazib olinayotgan joylardan uzoqda joylashtirish rentabyellik emas;

-Ayrim rangli metallarni ruda tarkibidan ajratib olish katta elektr quvvatini talab qiladi. Shu sababli bunday sanoat korxonalarini arzon energiya mavjud hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiq;

-Ko'pchilik rangli metallar, ruda tarkibida birgalikda uchraydi. Shu sababli bunday rudalardan bir necha metall ajratib olinadi;

-Hozirgi kunda rangli metallarning bir qismi metal siniqlarini qayta eritish asosida olinmoqda. Jumladan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mis va aluminiyning 25-30%, qo'rg'oshinning 45-50% ikkilamchi mahsulotlarni qayta eritish asosida olinmoqda.

Rangli metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirish ham hilma-xil. Jahon rangli metallurgiya sanoati yetakchi o'rinni egallaydi. Uni alyuminiy olishning texnologik jarayoni ham ancha murakkab.

Jumladan, aluminiy ishlab chiqarishning dastlabki bosqichi-xom-ashyo (boksit, nefelin, alunit)ni qazib olish. Aluminiy sanoatining ushbu bosqichi xom-ashyo rayonlarida joylashtiriladi.

Aluminiy olishning ikkinchi bosqichi aluminiy oksidi ya'ni glinazem olishdir. Bu jarayon xom-ashyoni va elektr quvvatini ko'p talab qiladi. Shu sababli, aluminiy sanoatining ushbu bosqichi xom-ashyo, hamda elektr stantsiyalariga yaqin joylarda joylashtiriladi.

Aluminiy olishning uchinchi bosqichi glinazyomdan elektrolizlar yordamida aluminiy olishdan iborat. Bu jarayon katta elektr quvvatini talab qilganligi sababli bunday sanoat

korxonalari arzon elektr energiyasini ishlab chiqaradigan hududlarda joylashtiriladi.

Dunyoda glinazyomning asosiy xom-ashyosi boksit hisoblanadi. Jahonda 150 mln.t.boksit qazib olinmoqda. Boksitning katta konlari Avstraliya, Gvineya, Yamayka, Braziliya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Surinam, Gretsiya, Venyesuela va Qozog'istonda joylashgan. Qazib olingan boksitning 1/3 qismi AQSHga, Kanada, Ukraina, Irlandiya va Italiyaga eksport qilinadi. Aluminiy ishlab chiqarish-katta gidroelektr quvvatiga ega bo'lgan davlatlar (AQSH, Rossiya, Kanada, Braziliya, Norvegiya), hamda neft va gazga boy mamlakatlar (Iroq, Baxrayn, BAA, Niderlandiya, Buyuk Britaniya), toshko'mir konlari asosida elektr energiyasi ishlab chiqaradigan (Hindiston va Xitoyda) rivojlangan. Shu bilan birgalikda aluminiy sanoati, azaldan aluminiy sanoati an'anaviy rivojlangan mamlakatlardan Frantsiya, Avstriya, Vengriyada ham rivojlangan.

Dunyoda aluminiy ishlab chiqaradigan yetakchi davlatlarga-Rossiya, AQSH, Yaponiya, Germaniya va Italiya kabi davlatlar misol bo'ladi.

Mis sanoati, asosan mis konlari mavjud mamlakatlarda joylashgan. Ruda tarkibida misning miqdori ko'p hollarda juda oz (8-35% gacha), va uncha elektr quvvatini katta talab qilmaydi. Shu sababli mis eritish sanoati asosan mis konlari joylashgan mamlakatlarda joylashgan. Mis konlarining ko'pchiligi Shimoliy va Lotin Amerikasi mamlakatlari (Chili, AQSH, Kanada, Peru, Meksika), Afrika (Zambiya, Zair), MDH (Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston), Osiyo (Yaponiya, Indoneziya, Filippin), Avstraliya va Okeaniya (Avstraliya, Papua-Yangi Gvineya)da joylashgan.

Mis qazib olish va mis eritish sanoati bo'yicha AQSH, Chili, Yaponiya, Xitoy, Kanada, Rossiya yetakchilik qiladi. Qazib olingan mis rudasining bir qismi Lotin Amerikasi mamlakatlaridan AQSH, Afrika mamlakatlaridan Yevropa davlatlariga, Rossiyadan Qozog'iston, Yevropa va Xitoyga olib ketiladi. Jahonda eritilayotgan misning 15% mis parchalarini (siniqlarini) eritish asosida olinadi. Mis parchalari asosida mis eritish Buyuk Britaniya, Frantsiya, Belgiyada rivojlangan.

Rux va qo'rg'oshin sanoatining xom-ashyosi polimiyetall rudalari hisoblanadi. Polimetall ruda konlari Shimoliy va Lotin Amerikasida AQSH, Kanada, Meksika, Peruda, Yevropada-Irlandiya va Germaniyada, MDH davlatlarida-Rossiya va Qozog'istonda, Xitoy va Avstraliyada joylashgan. Shu sababli ushbu mamlakatlar polimetall rudalarini qazib olish bo'yicha ham ajralib turadi. Rux va qo'rg'oshin eritish sanoati bo'yicha AQSH, Yaponiya, Kanada Avstraliya, Germaniya, Frantsiya, Italiya yetakchilik qiladi. Shular ichida rux va qo'rg'oshin eritish Xitoy va Rossiyada juda kuchli taraqqiy etgan bo'lib, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari ulardan olib ketadi.

Dunyoda qazib olinayotgan va eritilayotgan qalayning 2/3 qismi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga ayniqsa Malayziyaga to'g'ri keladi. Qalay sanoati Baliviya, Rossiya va Xitoyda ham rivojlangan.

Mis kabi, qo'rg'oshin, rux va qalayni ham ularning siniq (parcha)laridan eritish ham kuchli rivojlangan. Ayniqsa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda olinayotgan qo'rg'oshinning 50%, rux va qalayning 25% metall siniqlarini eritish asosida olinadi.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so`rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o`tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

### **Darsning qisqacha mazmuni:**

#### **Darsni mustahkamlash:**

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1- Topshiriq. Jahon metallurgiya sanoatining xalq xo`jaligida tutgan o`rnini diogrammada ko`rsatish.
- 2- Topshiriq. Jahon rangli metallurgiya sanoatining tarkibi va joylashishi haqida referat yozish

#### **Amaliy mashg`ulotlar:**

1. Jahon qora metallurgiya sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.
2. Jahon rangli metallurgiya sanoati rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

### **Testlar**

1. **Qora metallurgiya sanoati kombinatlarini joylashtirish uchun eng qulay joy qayer hisoblanadi?**  
A) Temir rudasi mavjud joylar;  
B) Marganes rudasi bor joylar;  
C) Joylanuvchi ko`mir bor joylar;

D) Elektr energiyasi bor joylar;

E) A, B, C

### **2. Nima sababdan Hindiston, Xitoy, Qozog`ston, Avstraliya va Ukrainaning Donbas-Dinepr bo`yi rayonlarida qora metallurgiya kombinatlari joylashgan?**

A) Xom ashyoning mavjudligi;

B) Suv resurslarining mavjudligi;

C) Elektr energiyasi va mehnat resurslarining mavjudligi;

D) Istemolning mavjudligi;

E) A, B, C

### **3. Alyuminiy sanoati korxonalarini joylashtirishda qaysi omil hal qiluvchi rol o`ynaydi?**

A) Xom ashyoning mavjudligi;

B) Mehnat resurslarining mavjudligi;

C) Elektr energiyasining mavjudligi;

D) Istemolning mavjudligi;

E) Ekologik sharoitning qulayligi;

### **4 Mis sanoat korxonalarini joylashtirish qonuniyatlarini aniqlang?**

A) Elektr energiyasining mavjudligi;

B) Xom ashyoning mavjudligi;

C) Mehnat resurslarining mavjudligi;

D) Transport tarmog`ning yaxshi rivojlanganligi;

E) Istemolning mavjudligi;

### **5. Dunyoda qazib olinayotgan qalayning asosiy qismi qaysi mamlakatlarga to`g`ri keladi?**

A) Malaziya

C) Rossiya

B) Boliviya

D) Xitoy

E) Barcha javoblar to`g`ri.

### **Sinov savollari:**

1. Metallurgiya sanoatining xalq xo'jaligida tutgan o'rniga baho bering?
2. Metallurgiya sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Qora metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirishda qaysi omillarni hisobga olish kerak?
4. Engil va rangli metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirishda qaysi omillar asosiy rol o'ynaydi va nima uchun?
5. Ruda tarkibida kam uchraydigan rangli metal sanoat korxonalari joylashtirishda nimalarga etibor berish kerak?

### **Uyga vazifa**

1. Qora metallurgiya sanoatining xom ashyolari keng tarqalgan hududlarni yozuvsiz xaritaga tushuring.
2. Rangli metallurgiya sanoatini xom ashyolari keng tarqalgan joylarini yozuvsiz kartaga tushuring.

### **4- mavzu: Jahon mashinasozlik sanoati**

#### **Topshiriq:**

1. Jahon mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'rniga baho berish.
2. Jahon mashinasozlik sanoatining tarkibini aniqlash;
3. Jahon mashinasozlik sanoat tarmoqlarining joylashish qonuniyatlarini aniqlash.

#### **Reja:**

1. Jahon mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'ri.
2. Jahon mashinasozlik sanoatining tarkibi.
3. Jahon mashinasozlik sanoati rivojlangan mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlari.

**Darsning o'quv va tarbiyaviy maqsadi:** Mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'ri to'g'risida tushuncha berish. Jahon mashinasozlik sanoatining tarkibiy qismlari va ularning rivojlangan mintaqalari to'g'risida tushuncha berish.

**Dars o'tish vositalari;** Jahonning siyosiy kartasi, jahon mashinasozlik sanoati kartasi, jadvallar, sxemalar, diogrammlar, sloyda, fotasurat, fotabomlar va h.k.z.

**Dars o'tish uslubi:** Ma'ruza materiallari bilan talabalarni tanishtirish, ma'ruzaning qisqa va lo'nda mazmunini aks etgan materiallarni talabalarga tarqatish, dars jarayonida talabalar o'rtasida o'zaro munozaralardan samarali foydalanish va ularning mustaqil fikrlarini tinglash, amaliy misollarga keng o'rin berish va h.k.z.

## **Darsning mazmuni:**

### **Jahon mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'rni.**

Mashinasozlik jahon sanoatining asosiy tarmog'i bo'lib, ushbu tarmoq ya'ni sanoat mahsulotining 35% ishlab chiqaradi. Sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlik sanoati ko'p mehnat talab qiladi. Ayniqsa asbobsozlik, elektrotexnika, aerokosmik, atom mashinasozligi malakali ishchi kuchini talab qiladi. Shu sababli mashinasozlik sanoatining ushbu tarmoqlarini joylashtirishda malakali ishchi kuchining mavjudligi hisobga olinadi.

Jahon mashinasozlik sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH yetakchilik qiladi. AQSH xissasiga jahon mashinasozlik sanoati mahsuloti qiymatining 30% tugri keladi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 15% ni, Germaniyada 10%ni tashkil qiladi. Mashinasozlik sanoati Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadada ham rivojlangan. Ushbu mamlakatlar hissasiga jahon mashinasozligi sanoati eksportining 80%i to'g'ri keladi. Ayniqsa aviakosmik, mikroelektronika, robot texnikasi, atom energetikasi, avtomobilsozlik mashinalarini ishlab chiqarishda ular yetakchilik qiladi.

Mashinasozlik sanoati Rossiya, Xitoy, Shveytsariya, Shvetsiya, Italiya, Niderlandiyada ham rivojlangan. Jumladan, Rossiya mashinasozlik sanoati mahsuloti qiymatining 6% ga, Xitoy 3% ga teng mahsulot ishlab chiqaradi.

Mashinasozlik sanoati tez rivojlanayotgan mamlakatlarda ham rivojlagan.

Ushbu mamlakatlarda mashinasozlik sanoatining rivoji eng avvalo arzon ishchi kuchining mavjudligi hisobiga amalga oshiriladi. Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarda

mashinasozlik sanoatining uncha murakkab bo'lmagan tarmoqlari rivojlangan. Mashinasozlik sanoati rivojlangan mamlakatlarga-Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan, Singapur, Hindiston, Turkiya, Braziliya, Argentina misol bo'ladi. Ushbu mamlakatlarda ko'proq uy-ro'zor elektrotexnika mashinalarini ishlab chiqarish, avtomobilsozlik va kemasozlik yaxshi rivojlangan.

#### **2.4.2 Jahon mashinasozlik sanoati tarmoqlari.**

Mashinasozlik sanoati stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, umumiy mashinasozlik, transport va elektrotexnika mashinasozligi kabi tarmoqlardan iborat.

Umumiy mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda va eksport qilishda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan-Germaniya, AQSH, Yaponiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Mashinasozlikning stanoksozlik tarmog'i iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga –Yaponiya, Germaniya, AQSH, Italiya va Shveytsariya misol bo'ladi.

Elektrotexnika va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarishda AQSH, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Niderlandiya, uy-ro'zg'or elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqarishda Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar yetakchilik qiladi.

Transport mashinasozligida eng kuchli taraqqiy qilgan tarmoq-avtomobilsozlik hisoblanadi. Avtomobilsozlik Yaponiya, AQSH, Kanada, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Ispaniya, Rossiya kabi mamlakatlarda rivojlangan. Shu bilan birgalikda mashinasozlik-Janubiy Koreya, Braziliya, Argentina, Xitoy, Turkiya,

Hindiston, Malayziya, Polsha va O'zbekistonda ham rivojlangan.

Transport mashinasozligida samolyotsozlik, kemasozlik, vagonsozlik ushbu sanoat mahsulotlariga jahonda talabning uncha katta emasligi tufayli ancha sust rivojlangan.

Keyingi yillarda kemasozlik rivojlanayotgan mamlakatlarda tez rivojlanmoqda. Masalan, Janubiy Koreya, kemasozlik bo'yicha Yaponiyani ortda qoldirib, jahonda birinchi o'ringa chiqib oldi. Kemasozlik Braziliya, Argentina, Meksika, Xitoy va Tayvanda ham rivojlanmoqda. Jahon bozorida ilgari kemasozlik yaxshi rivojlangan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniyaning mavqei borgan sari pasaymoqda.

Samolyotsozlik malakali ishchi kuchiga ega bo'lgan AQSH, Rossiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyada rivojlangan.

Jahonda mashinasozlik sanoati kuchli rivojlangan to'rt mintaqani ajratish mumkin. Bular Shimoliy Amerika, Yevropa, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda MDH davlatlari.

Shimoliy Amerika mintaqasi AQSH, Kanada, Meksika va Puerto-Riko davlatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu mintaqaga jahon mashinasozlik sanoati yalpi mahsuloti qiymatining 1/3 qismi to'g'ri keladi. Xalqaro mehnat taqsimotida ushbu mintaqada murakkab mashinalar, og'ir mashinalar va ko'p mehnat talab qiluvchi mashinalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ushbu mintaqada mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda AQSH yetakchi o'rinni egallaydi.

Yevropa (MDH mamlaktlaridan tashqari) davlatlariga ham jahon mashinasozlik sanoati mahsulotining 1/3 qismi to'g'ri keladi. Yevropa mamlakatlarida mashinasozlikning-stanoksozlik, metallurgiya sanoati uchun kerakli asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ayniqsa, to'qimachilik, qog'oz

sanoati uchun kerakli mashinalar, soatsozlik va elektrotexnika va elektronika mashinasozligi, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik sanoati tarmoqlari rivojlangan. Ushbu mintaqada mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha Germaniya yetakchilik qiladi.

Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi jahon mashinasozlik sanoati mahsulotlarining  $\frac{1}{4}$  qismini yetkazib beradi. Mashinasozlik sanoatining kuchli rivojlanishiga bu yerda arzon ishchi kuchi mavjudligi rol o'ynaydi. Ushbu mintaqada mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda Yaponiya yetakchilik qiladi. Yaponiya mashinasozlik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi ikkinchi mamlakat hisoblanadi. Yaponiya ayniqsa mashinasozlikning-mikroelektronika, elektrotexnika, samolyotsozlik, robot texnikasi kabi sohalar bo'yicha jahonda yetakchi o'rinda turadi. Ushbu mintaqadagi Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvan, Tailand, Singapur, Malayziya, Indoneziya davlatlarida ham mashinasozlik sanoati rivojlangan bo'lib, ular ko'proq ro'zg'or elektro asbob uskunolari, avtomobillar, dengiz kemalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va jahon bozorida o'z mahsulotlari bilan faol qatnashmoqda.

Jahon mashinasozlik sanoatining to'rtinchi mintaqasi MDH davlatlari mintaqasi hisoblanadi. Ushbu mintaqada mashinasozlik sanoatining barcha tarmoqlari rivojlangan. Ayniqsa ushbu mintaqada harbiy sanoat mashinasozligi, samolyotsozlik, kosmik raketa mashinasozligi, uy-ro'zg'or elektr asbob-uskunolari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mashinalari, metallni ko'p talab qiladigan stanoklar ishlab chiqarish, energetika mashinasozligi rivojlangan. Ushbu mintaqada mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda

Rossiya yetakchilik qiladi. Keyingi yillarda Hindiston, Braziliya, Argentina kabi mamlakatlarda ham mashinasozlik sanoati tez rivojlanmoqda. Ularda mashinasozlik sanoati hozircha o'z ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda. Ular hozircha avtomobillar, kemalar, velosipedlar va uncha murakkab bo'lmagan uy-ro'zg'or texnikalari (muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, konditsionerlar, chang yutgichlar, kalkulyatorlar va soatlar) ishlab chiqaradilar.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so'rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o'tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

### **Darsni mustahkamlash:**

#### **Mustaqil ish tohshiriqlari:**

1. Topshiriq. Jahon mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'rnini haqida referat yozish.
2. Jahon mashinasozlik sanoati rivojlangan mintaqalar bo'yicha referat yozish.

### **Amaliy mashg'ulotlar:**

Jahon mashinasozlik sanoatini kontur xaritaga tushirish.

### **Testlar:**

#### **1. Mashinasozlik sanoati qanday tarmoqlardan tarkib topgan?**

- A) Stonoksozlik va og'ir mashinasozlik
- B) Qishloq xo'jalik mashinasozlikgi
- C) Umumiy mashinasozlik
- D) Transport va elektrotexnika mashinasozligi
- E) A, B, S, D

#### **2. Transport mashinasozligining qaysi tarmog'i dunyoda eng kuchli rivojlangan?**

- A) Kemasozlik
- B) Mashinasozlik
- C) Avtomobilsozlik
- D) Vagonsozlik
- E) A, B, C, D

#### **3. Jahon mashinasozlik sanoati kuchli rivojlangan mintaqalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Shimoliy Amerika, Evropa, Sharqiy va Janubiy Osiyo; MDH davlatlari:
- B) Evropa, Janubiy Amerika, Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo:
- C) Shimoliy Amerika, Janubiy Evropa, Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo:
- D) Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, Shimoliy Evropa, MDH davlatlari:

#### **4. Shimoliy Amerika davlatlarida mashinasozlikning qaysi tarmoqlari kuchli rivojlangan?**

- A) Og'ir mashinasozlik;
- B) Murakkab mashinasozlik;
- C) Kup mehnat talab qiluvchi mashinasozlik;

D) kam metal talab qiluvchi mashinasozlik;

E) A, B, C;

**5. Evropa davlatlarida (MDH davlatlaridan tashqari) mashinasozlik sanoatining qaysi tarmoqlari kuchli rivojlangan?**

A) Stanoksozlik;

B) Metalurgiya sanoati uchun kerakli mashina va asbob-uskunalar;

C) Qog'oz ishlab chiqarish uchun mashinalar;

D) Soatsozlik, elektrotexnika va elektronika mashinasozligi;

E) A, B, C, D;

**6. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda mashinasozlik sanoatining qaysi tarmoqlari kuchli rivojlangan?**

A) Mikroelektronika;

B) Elektronika, uy-ro'zg'or, asbob-uskunalar;

C) Samalotsozlik;

D) Robot texnikasi;

E) Barcha javoblar to'g'ri;

**7. MDH davlatlarida mashinasozlik sanoatining qaysi sohalari yaxshi rivojlangan?**

A) Harbiy mashinasozlik, samalyotsozlik, kosmik-raketa mashinasozligi;

B) Qishloq xujaligi mashinasozligi;

C) Elektro-texnika mashinasozligi;

D) Metani ko'p talab qiladigan mashinasozlik;

E) A, B, C, D;

### **Sinov savollari**

1. Mashinasozlik sanoatining dunyo xo'jaligida tutgan o'rniga baho bering?
2. Mashinasozlik sanoati qanday asosiy tarmoqlardan tashkil topgan?
3. Mashinasozlik sanoati eng kuchli rivojlangan mintaqalarni kartadan ko'rsating?
4. Jahonda mashinasozlik sanoati kuchli rivojlangan mintaqalar bir-birlaridan qaysi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi?
5. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining qaysi sohalari rivojlangan?

### **Uy vazifasi:**

1. Jahonda mashinasozlik sanoati kuchli rivojlangan davlatlarni yozuvsiz kartaga tushuring va ularning bir-biridan farqini aniqlang.

2. Transport mashinasozligi kuchli rivojlangan mamlakatlarni yozuvsiz kartaga tushuring.

## 5 - mavzu: Jahon kimyo sanoati.

### Topshiriq:

1. Jahon kimyo sanoatining asosiy tarmoqlarini aniqlash.
2. Kimyo sanoati kuchli rivojlangan mamlakatlarni aniqlash.

### Reja:

1. Jahon kimyo sanoatining xalq xujaligida tutgan o`rni va taqrkibi.
2. Kimyo sanoatining xom-ashyo manbalari.
3. Jahonda kimyo sanoati kuchli rivojlangan davlatlarning ixtisoslashuvi.

**Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi;** Ximiya sanoatining jahon xo`jaligida tutgan o`rni, ximiya sanoatining tarmoqlari, xom-ashyo ba`zalari jahon mamlakatlarining ximiya mahsulotlarini ishlab chiqarishi bo`yicha ixtisoslashuvi to`g`risida tushuncha berish.

**Dars uchun o`quv vositalari;** Jahonning siyosiy kartasi. Jahon qazilma boyliklari kartasi. Jadvallar, diogrammalar, fotoalbomlar.

**Dars o`tish uslublari;** Ma`ruza materiallari bilan talabalarni tanishtirish, Qisqacha va lo`nda mazmunli aks etish ma`ruzalarni talabalarga tarqatish, dars bavomida savol-javob, o`zarj bahs uslublardan kehg foydalanish.

## Darsning mazmuni:

### Jahon kimyo sanoatining xalq xujaligida tutgan o`rni va taqrkibi:

Kimyo sanoati tog`-kimyo, asosiy kimyo va polimerlar kimyosi kabi tarmoqlarga bo`linadi.

Tog`-kimyo sanoati- kimyo sanoatining xom-ashyolari-apatit, fosforit, osh tuzi, kaliy tuzi, oltingugurtni qazib olishdan iborat.

Asosiy kimyo sanoati- noorganik birikmalar- kislotalar, ishqorlar, sodalar, mineral o`g`itlarni ishlab chiqaradi.

Polimerlar kimyosining asosiy vazifasi-sintetik kauchuk, sintetik smola, plastmassa va kimyoviy tolalarni ishlab chiqarishdan iborat.

Kimyo sanoatining joylashishiga juda ko`p omillar ta`sir ko`rsatadi. Bular quyidagilar:

Kimyo sanoati eng avvalo xom-ashyoni talab qiladi. Shu sababli kimyo sanoatining asosiy tarmoqlari ko`proq xom-ashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari-jumladan sintetik kauchuk va soda ishlab chiqarish xom-ashyo bilan birgalikda ko`p suv. Yoqilg`i va elektr energiyasini talab qiladi.

Kimyo sanoatining lak-bo`yoq, kimyoviy reaktivlar, farmatsevtika mahsulotlari, foto va zararli mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlari va polimerlar kimyosi tarmoqlari fan talab tarmoqlar hisoblanadi. Shu sababli ushbu tarmoqlar yuksak malakali kadrlarga ega bo`lgan katta shaharlarda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda taraqqiy etgan.

Jahonda eng ko`p kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish AQSHga to`g`ri keladi. AQSH jahon kimyoviy mahsulotlarning 20% ni ishlab chiqarmoqda. Jahon kimyoviy mahsulotlar eksportining 15% i ham AQSHga to`g`ri kelmoqda.

Kimyo sanoati kuchli rivojlangan mintaqalardan biri G'arbiy Yevropa hisoblanadi. Bu yerda Germaniya, Italiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Belgiyada kimyo sanoatining fan talab tarmoqlari kuchli rivojlangan. Ushbu mamlakatlar jahon kimyo sanoati mahsulotlarining 23-24% ini ishlab chiqarmoqda va shunchasini ekport qilmoqda.

Kimyo sanoati rivojlangan mamlakatlardan biri Yaponiya ham hisoblanadi. Yaponiyada jahon kimyo sanoati mahsulotlarining 15% i ishlab chiqarilmoqda.

Fors qo'ltig'i mamlakatlarida neft va gaz asosida kimyo sanoati uchun *yarim xom-ashyo* yetkazib berish rivojlanmoqda. Bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishda Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Baxraynlar yetakchilik qilmoqdalar. Ushbu davlatlarda jahon kimyo sanoati mahsulotlarining 5-7% i ishlab chiqarmoqda.

MDH mamlakatlarida ham kimyo sanoati yaxshi rivojlangan. Ushbu mamlakatlarda tog'-kon kimyosi, asosiy kimyo va organik sintez kimyo tamoqlari yaxshi rivojlangan. MDH davlatlari jahon kimyo sanoati mahsulotlarining 3-4% ini yetkazib beradi. Kimyo sanoati Xitoy, Koreya Respublikasi, Hindiston, Meksika, Argentina va Braziliyada ham rivojlangan.

Kimyo sanoatida polimer mahsulotlar ishlab chiqarish yetakchi tarmoq hisoblanadi. Polimerlar kimyosining asosiy xom-ashyosi neft va gaz hisoblanadi. Ilgari polimer mahsulotlarni olishda ko'mir gazidan foydalanib kelinardi.

Neft va gaz asosida polimer mahsulotlar ishlab chiqarishda AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Rossiya yetakchilik qiladi.

Polimer mahsulotlar ishlab chiqarish Yaponiya, Frantsiya, Germaniya va Belgiyada ham rivojlangan. Ushbu

mamlakatlarda sintetik smola, plastmasa va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishkuchli rivojlingan.

Kimyoviy tola ishlab chiqarishda-AQSH, Yaponiya, Germaniya yetakchilik qiladi.

Bundan tashqari Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvan va Hindistonda ham kimyoviy tola ishlab chiqarish rivojlangan.

Tog' kimyosi va asosiy kimyo asosan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yaxshi rivojlangan. Jumladan mineral o'g'it ishlab chiqarishda-Xitoy, AQSH, Kanada, Hindiston, Rossiya, Germaniya, Belarus, Frantsiya, Ukraina va Indoneziya kabi davlatlar yetakchilik qiladi. Fosforit tuzi qazib olish AQSH, Afrikadagi Marokash, Tunis, Jazoir, Senegal, Benin, Osiyodagi Iordaniya, Isroil, MDHdagi Rossiya, Qozog'iston hamda Rojdestvo va Nerudda rivojlangan. Kaliy o'g'iti qazib olish-AQSH, Kanada, Germaniya, Frantsiya, Belorusiyada rivojlangan.

Azot o'g'itining asosiy xom-ashyosi gaz hisoblanadi. Azot o'g'itlari ishlab chiqarish va uni eksport qilishda AQSH, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, Rossiya va Fors qo'ltig'i mamlakatlari yetakchilik qiladi. Bundan tashqari azot o'g'itlari ishlab chiqarish Frantsiya, Germaniya, Polsha, Ukraina, Xitoy va Hindistonda rivojlangan. Ushbu mamlakatlar azot o'g'itini ishlab chiqarishda ko'mir gazidan foydalanadilar.

Olingugurt ishlab chiqaradigan mamlakatlarga AQSH, Kanada, Meksika, Germaniya, Frantsiya, Polsha, Ukraina, Rossiya, Turkmaniston va Yaponiya misol bo'la oladi. Sulfat kislotasi ishlab chiqarish AQSH, Xitoy, Yaponiya va Rossiyada kuchli tarraqiy etgan.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so`rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o`tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

### **Darsni mustahkamlash**

#### **Mustaqil ish topshiriqlari**

- 1 – Topshiriq: Ximiya sanoatining asosiy tarmoqlari va ularning xom – ashiyo ba`zalari mavzusida referat yozish.
- 2 – Topshiriq: Ximiya mahsulotlari ishlab chiqarish bo`yicha jahon mamlakatlarining ixtisoslashuvi mavzusi bo`yicha referat yozish.

#### **Amaliy mashg`ulotlar:**

- 1..Jahon kimyo sanoatini kontur xaritaga tushirish.

#### **Testlar:**

##### **1. Jahon kimyo sanoatining asosiy tarmoqlari qaysilar?**

- A) Tog` - kon kimyosi;
- B) Asosiy kimyo;
- C) Polimerlar kimyosi;
- D) Mineral o`g`itlar ishlab chiqarish;
- E) A, B, C,

##### **2. Tog` - kon kimyosi ximiya sanoati uchun qanday xom – ashiyolarni chiqaradi?**

- A) Apatit;
- B) Fosforit;
- C) Osh va kaliy tuzlari;
- D) Oltin gugurt;
- E) Barcha javoblar to`g`ri;

##### **3. Noorganik birikmalar, kislotalar, ishqorlar, sodalar, mineral o`g`tlar kimyo sanoatining qaysi tarmog`da ishlab chiqariladi?**

- A) Tog` - kon kimyosida;
- B) Asosiy kimyoda;
- C) Polimerlar kimyosida;
- D) A, B, C, larda;
- E) Barcha javoblar to`g`ri;

##### **4. Sintetik kauchuk, sintetik smola, plastmasa, va kimyoviy tolalar kimyo sanoati qaysi sohasining mahsuloti?**

- A) Tog` - kon kimyosida;
- B) Asosiy kimyoda;
- C) Polimerlar kimyosida;
- D) Asosiy va tog` - kon kimyosi;
- E) Barcha javoblar to`g`ri;

##### **5. Jahon kimyoviy mahsulotining 20%i qaysi davlatga to`g`ri keladi?**

- A) AQSH ga;
- B) Yaponiyaga;
- C) Germaniyaga;
- D) Rossiyaga;
- E) Hindistonga;

##### **6. MDH davlatlarida kimyo sanoatining qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan?**

- A) Tog` - kon kimyosida;
- B) Asosiy kimyoda;
- C) Polimerlar kimyosida;
- D) A, B, C,
- E) Barcha javoblar noto`g`ri;

### **Sinov savollari.**

1. Jahon kimyo sanoatining asosiy tarmioqlari haqida so`zlab bering?
2. AQSHda kimyo sanoatining qaysi sohalari yaxshi rivojlangan?
3. Evropadagi qaysi davlatlarda kimyo sanoati kuchli rivojlangan?
4. Fors qo`ltig`I atrofida davlatlar qanday kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradi?
5. MDH davlatlarida kimyo sanoatining qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan?
6. O`zbekistobda kimyo sanoatining qaysi sohalari yaxshi rivojlangan?

### **Uy fazifasi.**

1. Kimyo sanoati xom – ashyolari keng tarqalgan hududlarni yozuvsiz kartaga tushuring.
2. Jahonda kimyo sanoati kuchli rivojlangan davlatlarni yozuvsiz kartaga tushiring.

## **6 – mavzu: Jahon engil va oziq – ovqat sanoati**

### **Topshiriq:**

1. Jahon engil va oziq – ovqat sanoatining tarmoqlari bilan tanishish.
2. Jahon engil va oziq – ovqat sanoatining joylashishiga ta`sir etuvchi omillar bilan tanishish.

### **Reja:**

1. Jahon va engil va oziq – ovqat sanoatining jahon xo`jaligida tutgan o`rni.
2. Jahon engil sanoatining tarkibi, joylashishi.
3. Jahon o`rmon sanoati, mintaqaviy xususiyatlari.
4. Jahon oziq – ovqat sanoati, tarkibi joylashishi.

**Darsning o`quv va tarbiyaviy maqsadi;** Talabalarga jahon engil va oziq – ovqat sanoatining tarkibi, joylashishi xususiyatlari to`g`risida tushuncha berish. Jahonda engil va oziq – ovqat sanoati tarmoqlarining mintaqaviy xususiyatlari ko`rsatish.

**Dars o`tish vositalari:** Jahonning siyosiy kartasi, jahon to`qimachilik sanoati kartasi, jahon don ekinlari, texnika ekinlari kartasi, giyografik atlas, jadval va diogrammlar.

**Dars o`tish uslublari:** Ma`ruza materiallari bilan talabalarni tanishtirish, ma`ruzaning qisqa va iunda mazmuni aks etirilgan materiallarni talabalarga tarqatish. Dars jarayonida talabalar o`rtasida o`zaro munozalardan samarali foydalanish, ularning mustaqil fikrlarining tinglash, amaliyot misollarga keng o`rin berish va hokazo.

### **Darsning mazmuni:**

#### **Jahon va engil va oziq – ovqat sanoatining jahon xo`jaligida tutgan o`rni.**

Yengil sanoat ko'pgina tarmoq va kichik tarmoqlardan tashkil topgan. Uning eng asosiy tarmoqlari-to'qimachilik, tikuvchilik va poyafzal sanoatidir. Yengil sanoatning ushbu tarmoqlari yangi sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Chunki sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatni rivojlantirish uchun yetarli xom-ashyo va arzon ishchi kuchi ega. Iqtisodiy rivojlagan mamlakatlarda yengil sanoatning o'ta yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan, murakkab texnologiyalarni va malakali ishchi kuchini talab qiladigan tarmoqlari rivojlangan.

#### **Jahon engil sanoatining tarkibi, joylashishi**

To'qimachilik sanoati, FTI davrida o'zining tarkibini tubdan o'zgartiradi. Uzoq yillar davomida to'qimachilik sanoatida asosiy tarmoq ip-gazlama sanoati, undan keyin jun gazlama, zig'ir tolasi asosida gazlama ishlab chiqaradigan tarmoqlar bo'lib keldi. Hozirgi kunda jahon to'qimachilik sanoatida tabiiy tola va ximiyaviy tola aralashmasidan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa bu tarmoq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tez rivojlanmoqda.

To'qimachilik sanoatining eng asosiy mintaqasi Osiyo mintaqasi bo'lib, ushbu mintaqada jahon to'qimachilik sanoatining 70% mahsuloti to'qiladi. Paxta tolasi asosida ip-gazlama to'qishning asosiy markazi Xitoy bo'lib, ushbu mamlakatda jahonda to'qiladigan ip-gazlamalarning 30% to'qiladi.

Hindiston jahon ip gazlamalarining 10% ni to'qiydi. Ip-gazlama to'qish AQSH, Yaponiya, Tayvan, Indoneziya, Pokiston, Italiya, Misr Arab Respublikasi, O'rta Osiyo Respublikalari (O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston)da ham rivojlangan.

Jun gazlamalarini to'qishda ham Osiyo mamlakatlari yetakchilik qiladi. Jahon jun gazlamalarining 15% Xitoyda, 14% Italiyada to'qiladi. Jun gazlamalari to'qish-Yaponiya, AQSH, Hindiston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya va Ispaniyada ham taraqqiy etgan.

Uzoq vaqtlar davomida shoyi gazlamalarni to'qishda AQSH yetakchi mamlakat bo'lib keldi. Keyingi yillarda shoyi gazlamalarni to'qish Hindiston, Xitoy va Yaponiyada ham taraqqiy etdi.

Zig'ir tolasi asosida gazlama to'qishda Rossiya yetakchi o'rinni egallaydi. Zig'ir tolasi asosida gazlama to'qish Frantsiya, Belgiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniyada ham rivojlangan.

Rivojlangan mamlakatlardan AQSH, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Frantsiyada ip gazlamalarni to'qish ancha kamaygan bo'lishiga qaramasdan ushbu mamlakatlar trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda yetakchilik qilmoqda. Bundan tashqari trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish Hindiston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvanda ham rivojlangan.

Kiyim kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Tayvan va Kolumbiya mamlakatlari yetakchilik qiladi, ayni paytda ular ushbu mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakatlar ham hisoblanadi.

Poyafzal sanoati. Poyafzal sanoati ham rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon

siljimoqda. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlarda poyafzal sanoati uchun xom-ashyo va arzon ishchi kuchi yetarli. Poyafzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xitoy dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi va dunyoda ishlab chiqarilayotgan poyafzalning 40% ini beradi. Poyafzal sanoati Italiya, AQSH, Janubiy Koreya, Tayvan, Yaponiya, Indoneziya va Tailandda ham rivojlangan.

Rivojlangan mamlakatlardan Italiya, AQSH, Avstriya va Germaniyada teri asosida qimmatbaho poyafzal buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Qimmatbaho poyafzal eksport qiluvchi mamlakat Italiya hisoblanadi.

### **Jahon o'rmon sanoati, mintaqaviy xususiyatlari.**

O'rmon sanoati yog'och tayyorlash, yog'ochga mexanik va ximiyaviy ishlov berish, sillyuloza- qog'oz ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Yog'och sanoati geografiyasini o'rmonlarning mavjudligi belgilaydi. Jahonda o'rmonzorlar Shimoliy va Janubiy mintaqalriga bo'linadi.

Shimoliy o'rmon mintaqasi Yevroosiyo va Shimoliy Amerikadagi o'rmon zonalaridan iborat bo'lib, bu yerda igna bargli daraxtlar (qarag'ay, yel, tilyog'och, pixta, kedr) dan tashkil topgan. Igna bargli daraxtlar bilan birgalikda qayin, dub, buk, yasendan iborat keng bargli daraxtlar ham uchraydi. Shimoliy o'rmon mintaqasi 1.2 mlrd. gektar ga teng bo'lib, jahondagi o'rmon zonasi daraxtlari zaxirasining 1/3 qismi joylashgan. Bu yerdagi o'rmonlardagi yog'ochning zahirasi 127 mlrd. m. kub ga teng, uning 60% dan ko'prog'i Rossiyaga, 30% Kanadaga to'g'ri keladi. Igna bargli o'rmonlar AQSH, Finlyandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda ham majud.

Janubiy o'rmon mintaqasi mavsumiy nam tropik Amazonka va Janubiy Amerikadagi nam ekvatorial, mavsumiy nam tropik o'rmonlardan iborat. Bunday o'rmonlar Janubiy

Amerikada, Braziliya, Kolumbiya, Venesuela, Peru, Afrikada Kongo Respublikasi, Angola, Nigeriya, Kamerun, Gabon, Janubiy-Sharqiy Osiyoda-Indoneziya, Malayziya, Tailand, Myanma, Avstraliya va Okeaniyadagi Patira-Yangi Gvineya, Avstraliyaning shimoliy-sharqidagi hududlarda joylashgan. Janubiy o'rmon mintaqasida asosan keng bargli daraxtlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bular ichida qizil daraxt, temir daraxtlar asosiy o'rinni egallaydi. Keng bargli o'rmondagi daraxtlar jahon zahirasiining 60% Janubiy Amerikaga, 28% Osiyoda joylashgan.

Janubiy o'rmon mintaqasidagi daraxtlar zahirasiining 10-20 % ishlatishga yaroqli daraxtlardan iborat bo'lib, ular G'arbiy Yevropa, Yaponiyaga olib ketiladi. O'rmonlarning qolgan qismi aholi tomonidan o'tin sifatida ishlatiladi.

Yiliga tayyorlanadigan yog'och 4 mlrd. kub m. ga teng bo'lib, uning 1,2 mlrd.m. kubi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Yog'och tayyorlashda keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi borgan sari ortib bormoqda. Yog'och tayyorlashda AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Braziliya, Indoneziya, Nigeriya, Xitoy, Shvetsiya mamlakatlari yetakchilik qiladi. Yog'och eksporti davlatlariga AQSH (jahonda eksport qilinadigan yog'ochning 15%), Hindiston, Braziliya (8% dan), Indoneziya va Kanada (6% dan) hisoblanadi.

Yog'ochga mexanik ishlov berish ham asosan rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Yiliga 500 mln. kub.m. taxta tayyorlanadi, shuning 20% AQSH ga, 12% Kanada ga, Yaponiya, Xitoy va Rossiyaga (6% dan) to'g'ri keladi.

Yiliga 160 mln.t. silyuloza tayyorlanadi. Shuning 30% AQSH ga, 15% Kanadaga, Xitoy, Yaponiya, Shvetsiya,

Finlandiyaga (6-7%) to'g'ri keladi. Yiliga 180 mln.t. qog'oz tayyorlanadi, shuning 45 % AQSH ga, 16 % Yaponiyaga, 12% Xitoyga, 10 % Kanadaga, Finlandiya, Shvetsiya, Frantsiya, Koreya Respublikasiga to'g'ri keladi.

Jahonda aholi jon boshiga 45 kg. dan qog'oz ishlab chiqariladi. Bu ko'rsatkich Finlandiyada 1400 kg., Shvetsiyada 670 kg., Kanadada 530 kg., Norvegiyada 400 kg., Rossiyada 35 kg. ni tashkil qiladi.

### **Jahon oziq – ovqat sanoati, tarkibi joylashishi.**

Jahon oziq-ovqat sanoati rivojida quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin.

Bir tomondan iqtisodiy sust rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoatining an'anaviy tarmoqlari rivojlanayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat sanoatining ayrim sohaları qisqarib bormoqda. Chunki, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining sog'lom turmush tarzi uchun intilishi natijasida ularda tamaki, vino sanoat tarmoqlari borgan sari qisqarib bormoqda.

Oziq-ovqat sanoatining texnik rivojlanishida qand-shakar sanoati ajralib turadi. Jahon bozoriga qand-shakar mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlarga – Braziliya, Kuba, Avstraliya, J.A.R., Tayland, Frantsiya, Niderlandiya va Germaniya misol bo'ladi.

Qand-shakarni import qiluvchi mamlakatlardan-Rossiya, AQSH va Yaponiya yetakchilik qiladi.

Jahonda ishlab chiqarilayotgan shakarning 2/3 qismini shakar qamishdan, 1/3 qismini-qand lavlagidan olinadi.

Tamaki va tamaki mahsulotlari (sigaret) ishlab chiqarish sanoati korxonalari G'arbiy Yevropaning port shaharlari hamda aholi zich joylashgan hududlarda joylashgan. Chunki G'arbiy Yevropa mamlakatlari tamakini asosan chetdan olib keladilar.

Jahonda eng ko'p tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda AQSH yetakchilik qiladi. Undan keyin Rossiya va Turkiya davlatlari turadi. Keyingi yillarda tamaki yetishtirish Xitoyda rivojlangan.

Vino ishlab chiqarish, keyingi yillarda borgan sari kamaymoqda. Jumladan keyingi 10 yillikda vino ishlab chiqarish Yevropa mamlakatlarida 10 mln diko litr (d/l)ga (1 diko\litr-10 litr) qisqardi. Shunga qarmasdan hozirga kunda ham vino ishlab chiqarishda Italiya (61 mln d/l) yetakchilik qiladi. Bu sohada Frantsiya ikkinchi (57mln d/l) o'rinni egallaydi. Ushbu ikki davlatga jahonda ishlab chiqarilayotgan vinoning 40% to'g'ri keladi. Vino ishlab chiqarish G'arbiy Yevropa mamlakatlariidan Ispaniyada (15-18 mln d/l), Portugaliya (10-12 mln d/l), Germaniya (10 mln d/l) da ham rivojlangan. G'arbiy yarim sharda bu sohada AQSH (20 mln d/l), Argentina (8-10 mln d/l) yetakchilik qiladi.

Pivo pishirish sanoati AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya va Rossiyada kuchli rivojlangan.

Non pishirish sanoati jahonning barcha mamlakatlarda rivojlangan.

Konserva sanoati, ko'proq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda rivojlangan bo'lib, ular o'z mahsulotlarini ko'proq eksportga yo'naltiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga ko'proq meva sharbati va meva konservalarini eksport qiladilar. Go'sht va baliq konserva mahsulotlarini ham eksport qiladilar.

**Baliq ovlash va baliqchilik.** Baliq ovlash sanoatining ahamiyati shundaki, baliq va uning mahsulotlari qimmatli oqsil manbai hisoblanadi. Shu sababli dunyoda ovlanadigan baliqning 75-80% ovqatlanish uchun ishlatiladi, 20-25 % qayta

ishlanib, undan baliq uni, qo'shimcha ozuqa va baliq moyi olish uchun ishlatiladi. Jahonda yiliga 10 mln.t. baliq ovlanadi. Bu aholi jon boshiga 17-18 kg. ni tashkil qiladi. Aholi jon boshiga baliq va baliq mahsulotlari Yaponida 60-70 kg., Rossiya va AQSH da 17-18 kg., Nepalda 0.2 kg.ni tashkil qiladi.

Dunyo okeanining uchta asosiy baliq ovlash mintaqasi (Shimoliy, Tropik va Janubiy) ajralib turadi. Hozirgi kunda Shimoliy mintaqada jahonda ovlanadigan baliqning 52% to'g'ri keladi, jahonda ovlanadigan baliqning 30% tropik mintaqaga, 18% Janubiy mintaqaga to'g'ri keladi.

Baliq ovlashda Atlantika okeani uzoq yillar davomida birinchi o'rinni egallab kelar edi. Hozirgi kunda baliq ovlashda Tinch okeani birinchi o'rinni egallaydi.

Atlantika okeanida baliq ovlashda Yevropa qismida - Shimoliy-G'arbiy qismida, Atlantikaning Shimoliy-Sharqiy qirg'oq yoqalarida asosiy o'rinni egallaydi.

Tinch okeanida Osiyoning Shimoli-G'arbiy rayoni alohida ajralib turadi. Ushbu rayondan Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikalari baliq ovlaydilar. Tinch okeanining Shimoliy Amerika qirg'oqlaridagi Shimoliy va Sharqiy rayonlar baliq ovlashda ikkinchi rayon hisoblanadi. Tinch okeanining Janubi-Sharqiy uchinchi baliq ovlash rayoni hisoblanadi. Bu hududdan baliq ovlashda Peru yetakchilik qiladi.

Baliq ovlashda an'anaviy baliq ovlovchi mamlakatlarga – Norvegiya, Daniya, Islandiya mamlakatlari hozirga qadar Yevropaning ko'pgina davlatlariga konservalari va baliq mahsulotlarini yetkazib berishda yetakchilik qiladi.

Keyingi yillarda suv organizmlarini tabiiy qayta tiklovchi jarayonlarini tartibga solishda anchagina ishlar qilinmoqda. Bunday ishlardan biri akva kultura (lotincha akva-suv, cultura-yetishtirish) baliq ovlash va baliqchilikda tobora katta rol

o'ynamoqda. Akva kultura-suv havzalarida baliq malyuskalar, qisqichbaqasimonlar va suv o'tlarini yetishtirish, baliqlarni animilizatsiyalashtirish, suv fermalarini tashkil etish va boshqa tadbirlarni o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Dengiz "fermalari"-Italiya, Frantsiya, Portugaliya, Niderlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya, AQSH da yaxshi rivojlangan. Jahonda akva kultura mahsulotini yetishtirish yiliga -9 mln.t. ni tashkil qiladi. Kelajakda uning mahsulotini 20 mln.t.ga yetkazish ko'zda tutilgan.

Kit ovlash. Kit ovlash 1865 yilda Norvegiyada vujudga keldi. XX asrning boshlarigacha Shimoliy Atlantika kit ovlashning asosiy rayoni bo'lgan. Keyinchalik Tinch okeanining Shimoliy qismida, Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya qirg'oq yoqalarida kit ovlash boshlangan. Kit ovlash 1920 yilda 11 ming bosh, 1939 yili-46 ming, 1963 yili-66 ming boshga yetgan. Keyinchalik kit ovlash pasaydi. Kitlarni ko'p ovlash ular sonining keyin kamayishiga olib keldi.

Xalqaro Kit Ovlash Komissiyasi (XKOK) tuzildi. (1946 yil) U dastlab Atlantikada qat'iy kit ovlash kvotasini boshladi. Keyinchalik bu tadbir Tinch va Atlantika okeanida ham qo'llanildi.

1982 yil XKOK qaroriga asosan 10 yillik moratoriy qabul qilindi, kit ovlashga litsenziya berish qat'iy tartibga solindi (taxminan yiliga 1,5 ming bosh). Hozir kitlar soni ko'paymoqda, lekin bu jarayon sekin o'smoqda.

1993 yilda XKOK moratoriyni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qildi. 1994 yilda "Dunyo okeanining Janubiy qismida (40' j.k. dan janubda) uzoq muddatli kitlar qo'riqxonasi tashkil etildi.

### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so`rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o`tkazish – 15 minut.
4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

### **Darsni mustahkamlash**

#### **Mustaqil ish topshiriqlari**

- 1 – Topshiriq: Jahon engil sanoatining tarkibi va uning mintaqaviy xususiyatlari mavzusida referat yozish.
- 2 – Topshiriq: Jahon oziq – ovqat sanoatining tarkibi va uning mintaqaviy xususiyatlari mavzusida referat yozish.

### **Amaliy mashg`ulotlar:**

1. Jahon yengil sanoatini kontur xaritaga tushirish.
2. Jahon oziq-ovqat sanoatini kontur xaritaga tushirish.
3. Jahon o`rmon sanoatini kontur xaritaga tushirish.

### **Testlar:**

**1. Jahon to`qimachilik sanoati mahsulotining 70% qaysi mintaqaga to`g`ri keladi?**

- A) Evropaga;
- B) Osiyoga;
- C) Janubiy Amerikaga;
- D) Shimoliy Amerikaga;
- E) O`rta Osiyoga;

**2. Quyidagi davlatlarning qaysi guruhida jun gazlamalari to`qish yani rivojlangan?**

A) Xitoy, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Bangladesh, Hindiston, Rossiya, Qozog`iston, Koreya, V`etnam.

B) Xitoy, Italiya, Yaponiya, AQSH, Hindiston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Qirg`iziston.

C) Xitoy, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, Latviya, Estoniya, Bangladesh, Janubiy Afrika Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, Laos.

D) AQSH, Braziliya, Avstraliya, Qozog`iston, Turkmaniston, Eron, Hindiston, Pokiston, Afg`oniston, Yaponiya.

E) Barcha javoblar to`g`ri.

**3. Sohi gazlamalar to`qishda qaysi mamlakat etakchilik qiladi?**

A) O`zbekiston;

B) Tojikiston;

C) Turkmaniston;

D) Xitoy;

E) AQSH;

**4. Shimoliy o`rmon mintaqasi janubiy o`rmon mintaqasidan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?**

A) Igna bargli daraxtlarning ko`pligi;

B) Keng bargli daraxtlarning ko`pligi;

C) Keng va igna bargli daraxtlarning ko`pligi;

D) Tropik o`rmoni daraxtlarining ko`pligi;

E) Barcha javoblar to`g`ri;

**5. Qand shakar eksport qiluvchi mamlakatlar guruhini aniqlang?**

A) Kuba, Braziliya, Avstraliya, JAR, Tayland, Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya.

- B) Kuba, Braziliya, AQSH, Argentina, Malaziya, Indoneziya, Koreya, Xitoy.
- C) Kuba, Braziliya, Tayland, Hindiston, Pokiston, Rossiya, Qozog'iston.
- D) Kuba, Braziliya, Xitoy, Yaponiya, Avstraliya, Germaniya, Italiya, Xitoy.
- E) Barcha savollar to'g'ri:

**6. Hozirgi kunda jahonda ovlanadigan baliqning 52% qaysi mintaqaga to'g'ri keladi?**

- A) Shimoliy mintaqaga;
- B) Tropik mintaqaga;
- C) Janubiy mintaqaga;
- D) Ekvatorial mintaqaga;
- E) Barcha javoblar to'g'ri:

#### **Sinov savollari**

1. Jahon engil sanoatining asosiy tarmoqlariga tavsif bering?
2. To'qimachilik sanoatining tarkibi va uning mintaqaviy xususiyatlariga tavsif bering?
3. O'rmon sanoati va uning mintaqaviy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Jahon oziq – ovqat sanoati tarkibi va joylashishiga tavsif bering.
5. Jahon baliq ovlash va baliq konserva sanoatining mintaqaviy xususiyatlari nimalardan iborat?

#### **Uy vazifasi**

1. Jahon to'qimachilik sanoati kuchli rivojlangan shaharlarni yozuvsiz kartaga tushuring.
2. Jahon oziq – ovqat sanoati tarmoqlarini yozuvsiz kartaga tushuring.

#### **7 - mavzu: Jahon transporti geografiyasi**

1. Jahon transport tarmog'ining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini aniqlang.
2. Jahon transport turlari va ularning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish.

#### **Reja:**

1. Jahon transportining jahon iqtisodiyotida tutgan o'рни.
2. Jahon quruqlik transporti tarkibi joylashishi.
3. Jahon suv va havo transporti mintaqaviy xususiyatlari.

**Darsning o'quv va tarbiyaviy maqsadi;** Talabalarga jahon transportining dunyo xo'jaligida tutgan o'рни, jahon transporti turlari, ularning mintaqaviy xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish.

**Dars o'tish vositalari;** Jahonning siyosiy artasi, jhon temir yo'li va avtomobil yo'llari kartasi, jadvallar, diagrammalar.

**Dars o'tish uslublari;** Talabalarni ma'ruza matni bilan tanishtirish, ularga ma'ruzaning asosiy va lo'nda qismini berish. Dars o'tish jarayonida talabalar bilan bevosita mulakatda ya'ni savol – javobda bo'lish, ular o'rtasida bahs munozaralar tashkil qilish, mahaliy materiallardan keng foydalanish.

## **Darsning mazmuni:**

### **Transportning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini**

Transport-moddiy ishlab chiqarishning o'ziga xos tarmog'i. U qishloq ho'jaligi, sanoatdan farq qilib moddiy ne'matlar yaratmaydi. Transportning mahsuloti-u ishlab chiqarilgan mahsulot va odamlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borishdan iborat. Shu sababli transportning ishi u tashigan yuk oboroti har bir kilometrda tashigan yuk ( tonna ) bilan belgilanadi, yoki tashigan odamlar soni bilan belgilanadi.

Transportning asosiy turlari-temir yo'l, suv (dengiz va daryo), avtomobil, havo va quvur transportidan iborat. Bularning barchasi birgalikda jahonning yagona transport sistemasini tashkil qiladi.

Transport tarmoqlarining rivojlanish darajasini ma'lum bir maydonga to'g'ri keladigan transport tarmoqlarining uzunligi bilan, hamda umumiy yuk tashishda transport turlarining hisssasi bilan aniqlanadi.

Keyingi yillarda boshqa transport turlariga nisbatan avtomobil. quvur transporti tez rivojlanmoqda. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda temir yo'l transportining roli borgan sari kamaymoqda.

Transport tarmoqlarining asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda mujassamlashtirilgan bo'lib, ularga tashiladigan yuk va passajirlarning asosiy qismi to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda transport tarmoqlarining mujassamlashuvi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha sust.

Transport tarmoqlari joylashuvining regional xususiyati e'tibor berilsa, bu ko'rsatkich Shimoliy Amerikada yaxshi mujassamlashagan bo'lib, ushbu mintaqaga jahon transport tarmoqlari va tashiladigan yuklarning 30% i to'g'ri keladi.

G'arbiy Yevropa mintaqasi transport turining kamlagi bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egallaydi. MDH mamlakatlari yuk tashishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Jahonnig boshqa mintaqalari, ya'ni Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida transport tarmoqlari o'zining tarkib topish bosqichida bo'lib, ushbu mamlakatlarda transport vositasi sifatida ot-aravadan foydalanish kuchli rivojlangan, ko'pchilik Afrika va Osiyo mamlakatlarida temir yo'l, quvur transporti butunlay yo'q.

Umuman jahon transport tarmoqlarida sifat jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni elektrlashtirilgan temir yo'llar uzunligi borgan sari ortmoqda, asfalt yo'llar uzunligi ortmoqda, kata diametrli quvur transporti rivojlanmoqda.

Keyingi yillarda quvur transportidan foydalanishda qit'alararo quvurlarning o'tkazilishiga katta e'tibor berilmoqda. Bulraga Suvayish va Panama kanallaridan o'tkazilgan neft quvurlari misol bo'la oladi.

Materiklararo avtomobil yo'llari o'tkazilmoqda, Bunga Gibraltar bo'g'ozini orqali Transevropa avtomobil yo'lining o'tkazilishi misol bo'la oladi.

Keyingi yo'llarda avtomobil va temir yo'llarda kontinentlarda yuk tashishi ortmoqda. Bunga Transsibir, Yaponiya, AQSHning Sharqiy qirg'og'i, Transamerika, G'arbiy Yevropa-Yaqin va O'rta Sharq temir yo'l va avtomobil yo'llari misol bo'la oladi.

Bir qancha mamlakatlar hududidan o'tuvchi transport koridarlari tashkil qilinmoqda, Bunday transport koridorlarining soni Yevropada 9 ta, Rossiyada ikkita (Berlin-Varshava-Minsk-Moskva-Nijniy Novgorod; Xelsinki-Sankt-Petyerburg-Moskva-Kiev-Odessa-Novorosiysk yoki Astraxan)

### **Jahon quruqlik transporti tarkibi joylashishi**

Quruqlik transportining asosiy turlariga – temir yoʻl, avtomobil va quvur transporti kiradi.

Jahon yuk tashish oborotida temir yoʻl transporti dengiz transportidan keyin ikkinchi oʻrinni egallaydi. Jahonda temir yoʻllarning umumiy uzunligi 1,2 mln. km boʻlib, u uzunligiga koʻra avtomobil transportidan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Temir yoʻl transportining asosiy vazifasi sanoat va qishloq hoʻjaligi yuklarini uzoq masofalarga tashishdan iborat.

Umuman, rivojlangan mamlakatlarda yangi temir yoʻllarini qurish deyarli yoʻq, yangi temir yoʻl qurilishlari rivojlanayotgan mamlakatlar (Rossiya, Xitoy va boshqalar)ga toʻgʻri keladi. Temir yoʻllarning uzunligi boʻyicha AQSH (176 ming km), Rossiya (87,5 ming km), Kanada (85), Hindiston, Xitoy, Germaniya, Avstraliya, Argentina, Frantsiya, Braziliya mamlakatlari yetakchilik qiladi. Ushbu mamlakatlarga jahon temir yoʻllari uzunligining yarmidan koʻprogʻi toʻgʻri keladi. Agar Shimoliy Amerika va Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida har bir kv km ga toʻgʻri keladigan temir yoʻllar uzunligi juda katta boʻlsa, Afrika va Osiyoning ayrim mamlakatlarida temir yoʻllar butunlay yoʻq.

Temir yoʻllarning kamligi boʻyicha Yevropa mamlakatlari (Belgiyaning har bir kv km ga 133 km) yetakchi oʻrinni egallasa, Afrika mamlakatlarida bu koʻrsatkich 2,7 km ni tashkil qiladi.

Elektrlashtirilgan temir yoʻllarning uzunligi boʻyicha ham Yevropa mamlakatlari yetakchilik qiladi. Masalan, Shveytsariyada temir yoʻllarning 100%, Shvetsiyada 65%, Italiya, Avstriya va Ispaniyada 50%, Rossiyada 43% elektrlashtirilgan.

Temir yoʻllarda yuk tashishda AQSH. Xitoy va Rossiya yetakchilik qiladi. Temir yoʻllarda passajirlar tashishda AQSH, Xitoy va Rossiya yetakchilik qiladi.

Avtomobil transporti passajirlar tashishda, hamda uncha uzoq boʻlmagan masofaga yuk tashishda yetakchilik qiladi. Jahon transport yoʻllari uzunligida avtomobil yoʻllari (4 mln km, jahon transport tarmoqlarini uzunligining 70%) yetakchi oʻrinni egallaydi.

Asfalt yoʻllarining asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarga toʻgʻri keladi. Jahondagi avtomobillarning umumiy soni 650 mln ga teng boʻlib, uning 80% Shimoliy Amerikaga 250 mln avtomobil toʻgʻri keladi. Avtomobillar sonining koʻpligi boʻyicha Yevropa mamlakatlari (200 mln avtomobil) va Yaponiya (50 mln dan koʻproq) katta oʻrinni egallaydi.

Quvur transporti, boshqa transport tarmoqlari ichida nisbatan yosh tarmoq hisoblanadi. Quvur transporti orqali asosan gaz, neft va neft mahsulotlari tashiladi. Jahon boʻyicha neft va gaz quvurlarining umumiy uzunligi 1,8 mln km ni tashkil qiladi. Neft va gaz quvurlari asosan neft va gaz qazib olinayotgan mamlakatlardan Shimoliy Amerikada (AQSH, Kanada), MDH mamlakatlaridan (Rossiya), Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlari neft va gazni koʻproq isteʼmol qiluvchi Gʻarbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Quvurda yuk tashishda Rossiya yetakchi oʻrinni egallaydi. Quvurlarda tashiladigan yukning yarmi Rossiyaga toʻgʻri keladi.

### **Jahon suv va havo transporti mintaqaviy xususiyatlari**

Xalqaro yuk tashishda dengiz transportining roli katta. Jahon mamlakatlarida tashiladigan yuklarning 3/4 qismi dengiz transporti orqali tashiladi. Dengizda tashiladigan yuklarning asosiy qismi – neft, neft mahsulotlari, ruda, ko'mir, don mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Qit'alararo va davlatlararo yuk tashishda katta va o'rtacha yuk ko'taruvchi kemalarda amalaga oshiriladi. Katta kobatajli yuk kemalari turli dengiz havzalari (jumladan, Vladivostok-Novorossiysk; Novorossiysk-Arxangelsk), kichik kobatajli yuk tashuvchi kemalar bir dengiz havzasidagi portlarida (jumladan, Novorossiysk-Tuapse) yuk tashiydi.

Dengizda yuk tashishda uzoq masofaga yuk tashish eng samarali hisoblanadi.

Dengizda yuk tashishda bir necha ming kemalar xizmat qiladi. Dengiz kemalarida yuk tashishda Panama, Liberiya, Gretsiya, Kipr orollari, Bogam orollari mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Norvegiya, AQSH yetakchilik qiladi.

Jahonda dengizda tashiladigan yuklarning 40% i tankerlarga to'g'ri keladi. Tankerlarda asosan neft va neft mahsulotlariga to'g'ri keladi. Neft mahsulotlari Karib dengizi havzidan AQSHga va G'arbiy Yevropaga, Yaqin Sharq mamlakatlaridan G'arbiy Yevropa davlatlari, AQSH va Yaponiyaga tashiladi.

Okeanlarda yuk tashishda Atlantika okeani yetakchi o'rinni egallaydi. Atlantika okeani qirg'oq yoqalarida eng katta port shaharlar joylashgan. Bularga Rotterdam (Niderlandiya), Antverpin (Belgiya), Gamburg (Germaniya), London (Buyuk Britaniya), Marsel (Frantsiya), Genuya (Italiya), Yangi Orlean, Nyu-York, Filadelfiya (AQSH)lar misol bo'la oladi.

Ko'pchilik port shaharlar Tinch okeani qirg'oq yoqalarida joylashgan. Bularga Kobe, Tiba, Chokogama, Nagoya (Yaponiya), Shanxay (Xitoy), Pusaya (Koreya Respublikasi), Sidney (Avstraliya), Vankuver (Kanada) port shaharlari misol bo'la oladi. Hind okeani qirg'oq yoqalarida joylashgan port shaharlariga Karachi (Pokiston), Mumbai (Bombey), Kalkutta (Hindiston), Kolombo (Shri-Lanka) va boshqalar misol bo'la oladi.

Yuk tashishda universal xususiyatga ega bo'lgan portlardan tashqari, faqat neft tashiydigan portlarga Fors qo'ltig'idagi Ras-Tankura (Saudiya Arabistoni), Mina-El Ahmad (Quvayt), Xark oroli (Eron), Amugay va La-Samina (Venesuela) portlari, ruda tashishga ixtisoslashgan Tubaron (Braziliya), ko'mir tashiydigan richarde-Bey (JAR), don, yog'och materiallari va boshqa yuk tashiydigan portlar misol bo'la oladi.

Dengizda yuk tashishda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan kanallar (Suvayish va Panama kanallari) katta ahamiyatga ega.

Daryo transporti. Daryo transportining yuk tashishdagi roli shundaki, ushbu transport yo'li orqali yuk mamlakat ichki qismiga olib boriladi. Daryoda yuk tashish ham ancha arzonga tushadi.

Daryo transporti Shimoliy va Lotin Amerikasi mamlakatlari, Yevropa va Osiyoda kuchli rivojlangan.

Yevropa mamlakatlarida daryoda yuk tashishda Sena, Reyn, Elba, Oder, Visla, Dunay, Dnepr, Volga, Don, Osiyoda-Gang, Ind, Iravad, Yantszi, Ob, Irtish, Yenisey, Lena, Amur va boshqalar, Shimoliy Amerikada-Missisipi, Lotin Amerikasida-Amzonka va Panama, Afrikada – Konga, Niger, Nil, Avstraliyada-Murrey va uning irmog'i, Darling daryolarining ahamiyati katta.

Kema qatnovi uchun qulay bo'lgan daryolar va kanallarning umumiy uzunligi 550 ming km.ga teng bo'lib, shuning deyarli yarmi Rossiya va Xitoyga (har biriga 100 ming km.dan), AQSH (40 ming km), Braziliya (30 ming km). Daryolarda yuk tashish hajmi bo'yicha AQSH yetakchi o'rinni, Xitoy ikkinchi o'rinni, Rossiya uchinchi o'rinni egallaydi.

Daryolarda yuk tashish Germaniya, Kanada, Niderlandiya kabi mamlakatlarda ham rivojlangan.

Havo transporti, tez manzilga yetkazuvchi, lekin qimmat turuvchi transport turi. Havo transporti tizimi xalqaro va mahalliy aeroportlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Xalqaro havo aloqalarida 1 mingdan ortiq aeroportlar xizmat qiladi. Yiliga 30 mingdan 70 mingacha passajirlar tashishga xizmat qiladigan eng katta aeroportlarga AQSHning Chikago, Atlanta, Dallas, Los-Anjelos, Buyuk Britaniyadagi London, Yaponiyadagi Tokio, Frantsiyadagi Parij, Germaniyadagi Frankfurt-na-Mayne misol bo'la oladi. Ushbu mamlakatlar Avstraliya, Xitoy, Kanada va Niderlandiya bilan birgalikda havo transporti taraqqiy qilgan mamlakatlar guruhini tashkil qiladi.

Havo transporti orqali asosan yo'lovchilar tashiladi. Yiliga 1,3 mlrd yo'lovchilar havo transporti yiliga 1,3 mlrd yo'lovchiga xizmat qiladi.

#### **Darsning xronologik kartasi – 80 minut**

1. Tashkiliy qism -2 minut
2. Mavzu yuzasidan rejadagi savollar asosida talabalar bilimi darajasini aniqlash. Suhbat, musobaqa, kartadan so'rash – 30 minut.
3. Mavzu yuzasidan yozilgan konspekt va savol – javob o'tkazish – 15 minut.

4. Mustaqil topshiriqni bajarish: yozuvsiz xaritalar bilan ishlash, referatlar yozish, jadvallar, sexemalar tuzish – 15 minut
5. Bilimlarni test asosida sinash – 10 minut.
6. Xulosa chiqarish, baholash – 8 minut.

#### **Darsni mustahkamlash**

##### **Mustaqil ish topshiriqlari**

- 1 – Topshiriq: Jahon quruqlik transporti, uning tarkibi, mintaqaviy xususiyatlari mavzusida referat yozish.
- 2 – Topshiriq: Jahon suv transporti, uning tarkibi, mintaqaviy xususiyatlari mavzusida referat yozish.

##### **Amaliy mashg'ulotlar.**

1. Jahon quruqlik transport tarmoqlarini kontur xaritaga tushirish.
2. Jahon suv va havo transportini kontur xaritaga tushirish.

##### **Testlar:**

##### **1. Quyidagilardan qaysi biri quruqlik transportiga kirmaydi?**

- A) Temir yo`l;
- B) Avtomobil yo`li;
- C) Quvur;
- D) Elektron;
- E) Daryo;

##### **2. Jahonda temir yo'llar qalinligi bo'yicha qaysi qit'a mamlakatlari etakchilik qiladi?**

- A) Amerika;
- B) Osiyo;
- C) Evropa;
- D) Avstraliya;
- E) Barcha javoblar noto'g'ri;

**3. Quvur transportida yuk tashishda jahonda qaysi mamlakat etakchi o`rinni egallaydi?**

- A) Rossiya;
- B) AQSH;
- C) Eron;
- D) Buyuk Britaniya;
- E) Xitoy;

**4. Dengiz transportida yuk tashishda halqaqro ahamiyatga ega bo`lgan kanallar nomini aniqlang?**

- A) Suvaehs;
- B) Panama;
- C) Volga – Don;
- D) A, B,
- E) barcha javoblar to`g`ri;

**5. Okeanlarda yuk tashilishida qaysi okean etakchi o`rinni egallaydi?**

- A) Shimoliy muz;
- B) Atlantika okeani;
- C) Tinch okeani;
- D) Hind okeani;
- E) Barcha javoblar to`g`ri;

#### **Sinov savollari**

1. Jahon xo`jaligida transportning tutgan o`rniga baho bering?

2. Quruqlik transporti tarkibi va mintaqaviy xususiyatlariga tavsif bering?

3. Suv transporti tarkibi va mintaqaviy xususiyatlariga tavsif bering?

#### **Uy vazifasi**

1. Jahonning asosiy suv yullarini kontur xaritaga tuhsiring.

2. Jahonning quruqlik transportini kontur xaritaga tuhsiring.

#### **ASOSIY ADBIYOTLAR.**

1. Karimov I.A. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” Toshkent, O`zbekiston, 1999 yil.
2. Abirqulov Q. ”Iqtisodiy geografiya” (darslik) Toshkent, TDIU, 2004 yil.
3. В.А. Бабурин, Ю.П.Мазуров «Географические основы управления» Москва.2000 г.
4. Е.В.Вовилова. «Экономическая география и регионалистика» Москва.2000 г.
5. Ю.Г.Липятец, В.А.Пуляркин. С.Б.Шлихтер «География мирового хозяйства» Москва 1995 г.
6. П.В.Сергий «Мировое хозяйство и междонародные экономические отношения на современном этапе» Москва 1998 г.
7. С.Б.Шлихтер «География мировой транспортной системы взаимодействия транспорта и территориальные системы хозяйства» Москва 1995 г.
8. М.А.Максаковский «Экономическая география зарубежных страна» Москва.2000 г.
9. А В.Алисова, Е.В.Валиев «Экономическая география зарубежных страна» Москва.1995 г.
10. Ю.Н.Глодкий, С.Б.Ловров «Глобальная география» Москва.2001.г  
«Страны мира» Москва.2000 г.

## QUSHIMCHA ADABIYOTLAR:

- 1 Т.М.Бушкова, И.А.Родионова «Экономическая география СНГ и при Балтики» Москва 1994 г.
- 2 Н.С. Мироненко «Введения в географию мирового хозяйства» Москва 1999 г.
3. Л.А. Родионова «Политическая карта мира» Москва 1996
4. Экономическая и социальная география в России» (под ред. Хрущёва А Т) Москва 1997 г.
5. Цергель П.В «Мировое хозяйство и международные экономические отношения на современном этапе» Москва. Прогресс. 1998 г.
6. «Социально – экономическая география зарубежного мира» (под рук. Вольского В.В.) Москва 1998 г.
7. Страны мира. Москва 1996 г.

## MUNDARIJA

**Kirish.....**

**1 - mavzu: Jahon qishloq xo'jaligi.....**

**Jahon sanoatining umumiy xususiyatlari**

**2 - mavzu. Jahon yoqilg'i-energetika sanoati.....**

**3 - mavzu: Jahon metallurgiya sanoati.....**

**4 - mavzu: Jahon mashinasozlik sanoati.....**

**5 - mavzu: Jahon kimyo sanoati.....**

**6 – mavzu: Jahon engil va oziq – ovqat sanoati.....**

**7 - mavzu: Jahon transporti geografiyasi.....**

**Adadiyotlar ro'yxati.....**